MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN

WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 21-AVGUST
№34 (3200)

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

Kitob bilan

Asrlar davomida diyorimizda yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlar ilm-ma’rifatni taraqqiyotning asosiy mezoni deb bilgan.

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi bayrami yaqinlashayotgan bugungi kunlarda orqaga nazar tashlasak, juda katta yo‘lni bosib o‘tganimizni ko‘ramiz. Darhaqiqat, O‘zbekiston tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotda ulkan yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilmli, vatanparvar, kitobxon qilib tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish va dunyoqarashini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Misol uchun mustaqillikdan oldingi avlod bilan hozirgi avlodni solishtirsa, biz bosib o‘tgan yo‘lning samarasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kitobxonlikni ommalashtirishga qaratilgan tanlov va loyihalar, zamonaviy axborot-resurs markazlarining faoliyatini takomillashtirish, kitob fondini boyitish, elektron va audiokitoblardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlar bu boradagi ishlar ko‘lami tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Kitob o‘qigan inson nafaqat bilim oladi, balki fikrlashni, voqea-hodisalarga xolis baho berishni, ezgulik va yovuzlikni farqlashni o‘rganadi. Shu ma’noda, kitobxonlik – shaxsiy kamolot omiligina emas, balki jamiyat ma’naviy taraqqiyotining ham muhim mezoni.

Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan ilgari surilayotgan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g‘oya ham bilimli, ma’rifatli va yuksak tafakkurli jamiyat barpo etish maqsadi bilan uyg‘un. Chunki yangi hayot va yangi kelajakni bunyod etadigan asosiy kuch bu qo‘lida kitob, qalbida Vatanga muhabbat, ongida ilm va ezgu maqsad mujassam bo‘lgan insonlardir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda mutolaa madaniyati va kitobga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Davlatimiz rahbari faoliyatining ilk kunlaridan yoshlar ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. 2017-yilda kitoblar nashr etishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha Prezident farmoyishi qabul qilingan edi. Kitobxonlarni rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yildi.

Bu siyosatning yana bir ifodasi sifatida 2023-yilda Respublika bolalar kutubxonasi yangilandi. 1907-yilda qurilgan tarixiy bino restavratsiya qilinib, zamonaviy jihozlandi. Bugun muassasa har jihatdan qulay, shinam va yorug‘. Endi u nafaqat bolalar, balki kattalarning ham sevimli maskaniga aylandi.

Kutubxona o‘zbek va jahon bolalar adabiyotiga oid 180 ming kitob fondiga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanayotgani xodimlar ishini yengillashtirib, kitobxon bolalarga qo‘shimcha qulaylik yaratgan. Jumladan, tashrif buyuruvchilar maxsus ID-karta oladi. U orqali kitobxonlarni ro‘yxatga olish, kitob olish va topshirish jarayonlari elektron tarzda bo‘lib, audiokitoblarni tinglash xonasi ham tashkil etilgan.

Bundan tashqari, besh muhim tashabbus doirasida yoshlarning ma’naviy dunyosini yuksaltirish, ularning kitobga bo‘lgan mehri va qiziqishini yanada oshirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda yoshlar o‘rtasida an’anaviy tarzda “Yosh kitobxon” tanlovini o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur tanlov nafaqat yoshlarning mutolaaga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish, balki ularning dunyoqarashi, bilim va intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilayotgan muhim ma’rifiy loyihalardan biriga aylandi.

Tanlov g‘oliblarini munosib rag‘batlantirish maqsadida Prezident sovg‘asi – zamonaviy avtomobil bilan taqdirlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa yoshlarning ilm-ma’rifat va kitobxonlikka bo‘lgan intilishini qo‘llab-quvvatlash, ularni yangi marralar sari ruhlantirish va jamiyatda kitobsevar, bilimli avlodni shakllantirishga qaratilgan yuksak e’tiborning yaqqol ifodasidir.



Umuman olganda, bunday rag‘batlantirishlar yoshlar uchun nafaqat munosib mukofot, balki ularning intellektual salohiyati, izlanishi va bilimga bo‘lgan intilishi davlat tomonidan yuksak qadrlanayotganining amaliy ifodasi hamdir. Eng muhimi, bu kabi tashabbuslar yoshlarni mutolaaga keng jalb etish, ularning dunyoqarashini boyitish, mustaqil fikrlash qobiliyatini yuksaltirish va ma’naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

E’tiborlisi, **yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim va salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida, jumladan milliy mudofaa tizimda ham izchil davom etmoqda**. Bugun armiya safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchining jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda, uning intellektual salohiyati, zamonaviy bilim va ko‘nikmalari, kitobxonligi ham muhim mezon sifatida qaralmoqda. Shu bois harbiy qism va muassasalarda kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish, harbiy xizmatchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ularni mutolaaga jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.



Harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yanada mustahkamlash bilan birga ularning ma’naviy olamini ham muntazam boyitib borishni zamonning o‘zi talab etmoqda.

Bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida bugun muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarni kasbga o‘rgatish va sifatli ta’lim olishlari uchun sharoit yaratish hamda armiyada kitobxonlikni ommalashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Jumladan, **joriy yildan boshlab, har yili Qurolli Kuchlarning barcha toifadagi harbiy xizmatchilari o‘rtasida to‘rt bosqichli “Ma’naviyat qalqoni” respublika kitobxonlik tanlovi o‘tkazilishi belgilandi**.

Tanlovning birinchi bosqichi harbiy qism va harbiy ta’lim muassasalarida, ikkinchi bosqichi harbiy okrug, birlashma va qo‘shilmalarda, uchinchi bosqichi Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarda o‘tkaziladi. Yakuniy respublika bosqichida saralashda g‘olib bo‘lgan harbiy xizmatchilar o‘zaro bellashadi. **Yakuniy bosqichning 4 nafar g‘olibi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining bosh sovrini – zamonaviy elektromobil hamda diplom bilan taqdirlanadi. Sovrinli o‘rinlarni egallagan harbiy xizmatchilar pul mukofotlari va diplomlar bilan rag‘batlantiriladi**.

Tanlovning bunday keng qamrovda tashkil etilayotgani harbiy xizmatchilar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ularning ma’naviy dunyoqarashini boyitish va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar izchil davom etayotganidan dalolat beradi. **Zero harbiy xizmatchining jangovar tayyorgarligi qanchalik muhim bo‘lsa, uning ma’naviy-ruhiy barqarorligi, mustaqil fikrlashi va bilim saviyasi ham shunchalik ahamiyatlidir**.

Ayniqsa, tanlovning quyi bo‘g‘indan boshlanib, yakuniy respublika bosqichiga qadar davom etishi har bir harbiy xizmatchiga o‘z bilimi va salohiyatini namoyon etish, mutolaa orqali dunyoqarashini kengaytirish hamda tengdoshlari bilan bilim maydonida bellashish imkonini beradi. Bu jarayonda g‘oliblikka intilish bilan bir qatorda, kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishning ortishi, asarlar mazmun-mohiyatini anglash va ulardan hayotiy xulosalar

kamol topayotgan avlod

chiqarish ko‘nikmasining shakllanishi ham muhim natija hisoblanadi.

Bugun kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribaga ham e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklarida 2015-yilda Shayx Muhammad bin Rashid Ol Maktum tashabbusi bilan boshlangan “Arab kitobxonlik tanlovi” dasturini O‘zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasidagi yaqin do‘stlik va strategik sheriklik doirasida milliy ma’naviy merosimiz asosida yurtimizda yangi bosqichga olib chiqilishi belgilandi.

Shu maqsadda “Milliy kitobxonlik harakati” dasturi boshlanmoqda. Endilikda har yili mazkur tadbirning final bosqichi Prezident darajasida o‘tkaziladi. Dasturning umumiy yillik mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etadi. Bosh sovrin sohibi 50 ming dollar bilan taqdirlanadi. Bu yurtimiz tarixida kitobxonlik bo‘yicha eng salmoqli mukofot bo‘ladi.

Mazkur harakat mamlakatimizning barcha



hududlarini qamrab olib, unda umumta’lim maktablarining 1-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan o‘quvchilari ishtirok etishi ko‘zda tutilmoqda. Bu esa kitobxonlikni yosh avlod hayotining erta bosqichidan boshlab shakllantirish, bolalarda mutolaaga mehr uyg‘otish va ularni izchil ravishda bilim olishga rag‘batlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Zero kitob bilan do‘stlashgan bola nafaqat ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi, balki uning tasavvuri, nutqi, tafakkuri va dunyoqarashi ham tobora kengayadi. Turli badiiy asarlar bilan tanishish orqali o‘quvchilar yaxshilik va yomonlik, sadoqat va xiyonat, jasorat va qo‘rqoqlik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglab boradi. Eng muhimi, kitob ularni mustaqil fikrlashga, voqea-hodisalarga o‘z nuqtayi nazari bilan baho berishga va hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashga o‘rgatadi.

Shu jihatdan mazkur harakatni oddiy kitobxonlik tanlovi sifatida emas, balki yosh avlodning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan keng ko‘lamli milliy tashabbus sifatida baholash mumkin. Uning har yili yuqori darajada o‘tkazilishi esa kitob va ilmga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasida yuksak qadrlanayotganining yana bir amaliy ifodasidir.

Bugun dunyo shiddat bilan o‘zgarib, raqamli texnologiyalar, zamonaviy gadjetlar va sun’iy intellekt hayotimizning tobora ko‘proq jabhalariga kirib kelmoqda. Axborot oqimi misli ko‘rilmagan darajada ortgan bugungi murakkab



sharoitda insonning mustaqil fikrlashi, axborotni saralay olishi, uni tahlil qilib, to‘g‘ri xulosa chiqara olishi eng katta ustunliklardan biriga aylanmoqda. **Ana shunday salohiyatni shakllantirishda esa kitob va mutolaaning o‘rni beqiyos. Zero kitob insonni tayyor axborotni qabul qilish emas, balki fikrlash, izlanish va voqelikka tanqidiy yondashishga o‘rgatadi**.

Shu nuqtayi nazardan, kitobxonlikni rivojlantirish bilar bir qatorda zamonaviy kutubxonalarni barpo etish va ularni ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlash bugungi davr talabi hamdir. Umumiy maydoni 30 ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan to‘rt qavatli bino bir vaqtning o‘zida 1 ming 420 nafar kitobxonga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Uning me’moriy yechimida milliy an’analar va zamonaviy uslub uyg‘unlashtirilgani esa kutubxonaning nafaqat ilm-ma’rifat maskani, balki milliy madaniyat va zamonaviy tafakkurni o‘zida mujassam etgan ma’naviy majmua sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Kutubxonada kitob fondlarini saqlash, hisobga olish, ularning xavfsizligini ta’minlash va zararsizlantirish uchun maxsus yuqori texnologiyali xonalar tashkil etiladi. Shu bilan birga, xalqaro va milliy yirik kutubxonalarning elektron bazalaridan onlayn foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bu esa kitobxonlarga nafaqat mavjud adabiyotlardan bahramand bo‘lish, balki dunyo ilmiy va adabiy merosiga zamonaviy raqamli imkoniyatlar orqali keng yo‘l ochadi.

Eng muhimi, bu kabi kutubxonalar an’anaviy kitob va zamonaviy texnologiyalarni bir nuqtada birlashtirib, yoshlarni axborot asrida mustaqil fikrlaydigan, bilimga chanqoq va keng dunyoqarashli avlod sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero bugungi raqamlashuv davrida insonni axborot oqimi ichida yo‘l topishga, uni to‘g‘ri anglash va saralashga o‘rgatadigan eng muhim vositalardan biri hamon kitobdir. Kitob orqali avlodlar tajribasi, milliy xotira va ma’naviy qadriyatlar bir avloddan ikkinchisiga yetkaziladi.

Bu jihatlar mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan ilgari surilayotgan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” g‘oyasi bilan ham uzviy bog‘liq.



Chunki yagona maqsad va ezgu intilishlar atrofida birlashgan xalqni birlashtirib turadigan umumiy ma’naviy tayanchlari ham bo‘ladi. Milliy adabiyot, tarix, xalqimizning boy ma’naviy merosi va buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-ma’rifiy xazina ana shunday mustahkam poydevordir.

Shu ma’noda, kitobxonlikni keng targ‘ib etish faqat mutolaa madaniyatini yuksaltirish yoki bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish vositasi emas. **U milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash,**



yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, eng muhimi, yagona maqsad sari intilayotgan jamiyatning ma’naviy birligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugun bir bolaning qo‘liga berilgan yaxshi kitob ertaga uning kasb tanloviga, dunyoqarashiga, Vatanga munosabatiga ta’sir qilishi mumkin. Bugun bir oilada shakllangan mutolaa muhiti ertaga butun jamiyatning intellektual muhitiga aylanishi mumkin.

Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”



Surat tahririyat arxividan olindi

“Tayanch” o‘quv kursi





Jangovar shaylik harbiy xizmatchining eng muhim qalqoni. Chunki iroda bilan mahorat uyg‘unlashgandagina nishon ko‘zlangan manzilga yetiladi. Ha, aynan shunday! Sharqiy harbiy okrugning So‘x garnizonidagi harbiy qismda o‘tkazilgan uch haftalik yozgi “Tayanch” o‘quv kursi ham harbiylarning ana shu jihatlarini yana bir bor yaqqol ko‘rsatdi.

TOG‘ BAG‘RIDA SINOVDAN O‘TAYOTGAN JANGOVAR MAHORAT



KBHX, oddiy askar Mehriddin JAHONGIROV

Aslida tog‘da jang qilish, dushmanga qarshi kurashish hech qachon oson kechmagan. Bu yerda faqatgina jismoniy kuch yoki qurolning o‘zi yetarli emas. Qadam sayin havoning yetishmasligi, o‘nqir-cho‘nqir qoyalar, kutilmagan ob-havo o‘zgarishlari va ko‘z ilg‘amas jarliklar har bir jangchidan favqulodda chidam, tezkor fikrlash hamda po‘latdek mustahkam irodani talab etadi. Har bir metr masofa yurak qoni va tinimsiz mehnat evaziga zabt etiladi.

Mazkur o‘quv kursi Mudofaa vazirligining Tog‘ tayyorgarligi o‘quv-mashqlar markazidagi tajribali yo‘riqchilar boshchiligida o‘tkazildi. Unda harbiy xizmatchilar murakkab tog‘ sharoitida taktik vazifalarni bajarishning o‘ziga xos sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tishdi. Real jang vaziyatlariga yaqinlashtirilgan topshiriqlar kurs davomida har bir ishtirokchining bilim va ko‘nikmasini amaliyotda tobladi. Eng quvonarlisi, mazkur kursda yigitlarning kundan kunga mahorati oshib, tog‘ sharoitidagi murakkab harakatlarni bajarish ko‘nikmalari yanada yuqori bosqichga ko‘tarilib bordi.

– Bilsangiz, tajriba o‘z-o‘zidan kelmaydi, – deydi kichik serjant Umid Shirinov. – U faqat mashaqqatli tanlangan yo‘ldan to‘planadi. Ha, bilim va ko‘nikma bevosita amaliyotga xizmat qilar ekan, demak, hayotiy muvaffaqiyat ham shunga bog‘liq. Agar irodangiz toshdek mustahkam bo‘lmasa, tog‘ning bu qaysar sharoitida qiynalasiz. Buni ko‘p bora ko‘rganmiz. Shuning uchun ushbu tayanch kursi bizga nafaqat tajriba, balki haqiqiy mahoratni his etish tuyg‘usini berdi. Yutuq har doim bizniki bo‘lsa, xatolar bunday mas’uliyatli maskanda kechirilmaydigan og‘ir qusurdir. Qusurlardan esa darhol va qat’iyat bilan voz kechishimiz shart. Shunda ko‘zlagan marrani zabt etamiz.

Tog‘da yo‘l boshqacha boshlanadi. Bir qadamni to‘g‘ri tashlasangiz, u keyingisiga poydevor bo‘ladi. Shu tariqa uzoq tuyulgan manzillar bora-bora yaqinlashadi, cho‘qqilar esa taslim bo‘la boshlaydi. Harbiy xizmat ham shunday, ya’ni dastlab mashaqqatli ko‘ringan vazifalar vaqt o‘tib qo‘ldan keladigandek tuyuladi. Ammo bu soxta xotirjamlikka aldanib qolmaslik kerak. Cho‘qqiga chiqdingmi, darhol undan keyingi balandlikni ko‘ra olishing lozim. Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat esa insonni hech qachon toldirmaydi. Bu oddiy hissiyot emas, bu ajdodlardan meros qolgan bobolar izi, qonlarni toshdirgan sodiqlik ruhidir.

Aka, hech tog‘ bag‘rida tunab qolganmisiz? Bu bir qarashda oddiy savoldek tuyular. Biroq ana shu tunash ortida tog‘ning ulkan mas’uliyati, mijja qoqmay o‘tgan iztirobli va shamoldek sovuq hislar yotadi. Kurs davomida harbiylar ana shu sinovdan ham muvaffaqiyatli o‘tishdi. Qoyalarning murakkab relyefi, o‘zgaruvchan ob-havosi, ekstremal vaziyatlarda zudlik bilan to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari nazariy va amaliy tarzda mustahkamlandi. Yigitlarning tog‘ qo‘ynidagi har bir harakati aniq va ishonchli tus olib, ularning jangovar salohiyati kun sayin oshib bormoqda.

– O‘quv mashg‘ulotlarida shaxsiy tarkibning ruhiy bardoshliligi va jangovar shayligiga alohida e’tibor qaratildi, – deydi kichik serjant Jahongir Sharipov. – Nazariya va amaliyot uyg‘unlashib, olgan bilimlarimiz tog‘ning qat’iy sinovlaridan o‘tdi. Bu yerda orttirgan har bir tajribamiz kelajakdagi mas’uliyatli vazifalarni yuqori saviyada bajarishimizga mustahkam poydevor bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar davomida “Menday bajar” va “Ustoz-shogird” an’analaridan samarali foydalangani yigitlarning kasbiy kamolotini yanada oshirdi.

Darhaqiqat, bu kurs bo‘linmalarning tog‘li hududlardagi harakatchanligini oshirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash hamda yurt himoyasi uchun kamarbasta bo‘lgan chinakam mardlarning bilimlarini boyitishga xizmat qildi. Tog‘ bag‘rida bajarilgan har bir vazifa oddiy satrlar emas, balki iroda va matonat bilan yozilgan haqiqiy mahorat sabog‘i bo‘ldi. Bugun mazkur kursda toblanayotgan har bir harbiy xizmatchi ertangi kunning murakkab sinovlariga tayyor va ishonchli qalqon ekanini amalda isbotlamoqda.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Kibersport



ZAMONAVIY BILIM VA SALOHIYAT MAYDONI

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, kibersport ham yoshlar, ham harbiy xizmatchilar orasida keng ommalashib, o‘ziga xos musobaqa va bellashuv maydoniga aylanmoqda.



Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligining Toshkent shahrida joylashgan qo‘shilma va harbiy qismlari o‘rtasida kibersport bo‘yicha musobaqa tashkil etildi.

Unda jamoalar o‘zaro kuch sinashib, belgilangan yo‘nalishlarda mahorat va tayyorgarliklarini namoyish etdi. Bellashuv davomida ishtirokchilar har bir vaziyatni chuqur tahlil va jamoa bilan uyg‘un harakat hamda qisqa vaqt ichida to‘g‘ri qaror qabul qilish borasidagi salohiyatlarini ko‘rsatdi.

– Mazkur musobaqada ishtirok etish biz uchun nafaqat o‘z bilim va ko‘nikmalarimizni sinovdan o‘tkazish, balki jamoaviy ishlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatimizni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyat bo‘ldi. Bellashuvlar davomida har bir vaziyatga strategik yondashish, jamoadoshlar bilan hamjihatlikda harakat qilish muhim ekanini yana bir bor his qildik, – deydi katta leytenant Farrux Abbosov.



Musobaqa davomida har bir jamoa o‘zining puxta tayyorgarligi va mahoratini namoyish etib, vazifalarni bajarishga intildi. Qizg‘in kechgan bahslar ishtirokchilar



uchun nafaqat raqobat maydoni, balki o‘zaro tajriba almashish, yangi ko‘nikmalarni egallash va jamoaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash imkonini ham berdi.

Tadbir yakunida hakamlar hay’ati tomonidan barcha ishtirokchilarning natijalari belgilangan mezonlar asosida xolis va adolatli baholandi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, yuqori



o‘rinlarni egallagan jamoalar aniqlanib, g‘olib va sovrindorlar diplom, kubok hamda esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi. Musobaqada g‘oliblikni qo‘lga kiritgan harbiy xizmatchilar keyingi bosqichda ishtirok etish imkoniga ega bo‘ldi.

E’tiborlisi, mazkur bellashuv faqatgina g‘oliblarni aniqlash bilan cheklanib qolmadi. U Vatan himoyachilarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini oshirish, raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim va amaliy ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

Kitob taqdimoti

“OTAMNING HARBIY QIZIMAN”



Yaxshi fazilatlar inson ongiga, avvalo, kitob orqali singadi. Chunki kitob insoniyatning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, kechmish saboqlari, orzu-intilishlari va ma’naviy qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazib kelayotgan bebaho xazinadir.

Ayniqsa, Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, jasorat, mardlik va fidoyilik kabi yuksak fazilatlarni yoshlar qalbiga singdirishda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi asarlarning o‘rni alohida. Bunday kitoblar orqali yosh avlod Vatan himoyasi yo‘lini tanlagan insonlarning hayoti, mashaqqatli xizmati va fidokorona mehnati bilan yaqindan tanishadi.



Ana shunday ezgu maqsadlarni o‘zida mujassam etgan asarlardan biri – uzoq yillardan buyon Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xizmat qilgan, mehnat faoliyatini ham oilasi, ham yurt tinchligiga bag‘ishlagan iste’fodagi I darajali serjant Shahnoza Muhammadiyevaning “Otamning harbiy qiziman“ nomli ilk kitobi.

Asarda harbiy xizmatchi hayotining ko‘pchilikka ko‘rinmaydigan jihatlari, xizmat mas’uliyati, oiladagi mehr-oqibat, ota kasbiga bo‘lgan farzandlik faxri hamda Vatanga sadoqat tuyg‘ulari ifoda etilgan.

Shuningdek, muallif o‘zining kitobini otasi Yusuf Muhammadiyevning yorqin xotirasiga bag‘ishlab, harbiy kasbni tanlashiga, turmush o‘rtog‘i va farzandlarining harbiy xizmatchi bo‘lib ulkan yutuqlarga erishishidagi muhim o‘rni haqida hikoya qiladi. Kitob nomining o‘ziyoq o‘quvchini o‘yga toldiradi. “Otamning harbiy qiziman“ degan jumlada nafaqat farzandning otasiga bo‘lgan mehr-muhabbati, balki uning kasbi, hayot yo‘li va Vatanga xizmat qilishdek ulug‘ missiyasiga bo‘lgan faxr mujassam.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida mazkur kitobning taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Unda muallifning yaqinlari, uzoq yillar bir safda xizmat qilgan hamkasblari, harbiy soha vakillari, kitobxonlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.



Tadbir davomida ishtirokchilar tomonidan kitobning mazmun-mohiyati, uning yaratilish tarixi va muallifning ijodiy izlanishlari haqida fikr bildirildi. So‘zga chiqqanlar asarda harbiy xizmatning o‘ziga xos jihatlari bilan bir qatorda, ota va farzand o‘rtasidagi mehr, oilaga sadoqat, insoniylik va Vatanga muhabbat kabi qadriyatlar samimiy yoritilganini alohida ta’kidladi. Shuningdek, kitobning kelgusida keng kitobxonlar ommasiga yetib borishi, undagi ibratli fikr va hayotiy lavhalardan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanish muhimligi qayd etildi.

“Otamning harbiy qiziman” kitobi insonni o‘qishga, mushohada qilishga, eng muhimi, Vatan oldidagi burch va mas’uliyat haqida chuqurroq o‘ylashga undaydi.

Shahnoza SULTONOVA *TOQQQ matbuot xizmati*

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligiga

KECHA, BUGUN VA KELAJAK

Mustaqillik – kechagi tarix, bugungi imkoniyat va ertangi avlod oldidagi mas’uliyat. Har bir xalq hayotida shunday tarixiy burilishlar bo‘ladiki, ularning ahamiyati yillar o‘tgan sari yanada chuqurroq anglanadi. O‘zbekiston uchun ana shunday buyuk burilish milliy mustaqillikdir.

1991-yil 31-avgust. Bu sana xalqimiz xotirasida oddiy bir kun sifatida emas, balki o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyatiga ega bo‘lgan yangi davrning boshlanishi sifatida muhrlangan. Mustaqillik bilan O‘zbekiston o‘zining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyot yo‘lini mustaqil belgilash huquqiga ega bo‘ldi. Bugun mustaqillikning 35 yilligi haqida so‘z yuritar ekanmiz, tabiiy ravishda bir savol tug‘iladi: 35 yil biz uchun nimani anglatadi?

Bu savolga faqat erishilgan yutuqlarni sanab javob berish yetarli emas. Chunki tarixni anglash – kechagi kunni eslash, bugungi kunni baholash va ertangi kun haqida mas’uliyat bilan o‘ylash demak. Shu ma’noda, mustaqillikning 35 yilligini “kecha, bugun va kelajak” uchligi asosida anglash mumkin.

KECHA: istiqlolga olib kelgan tarixiy yo‘l. Mustaqillik bir kunning ichida paydo bo‘lgan tushuncha emas. Uning zamirida xalqimizning asrlar davomida shakllangan davlatchilik tajribasi, milliy o‘zlikni saqlashga bo‘lgan intilishi va ozodlik haqidagi orzulari mujassam.

O‘zbek xalqining tarixiga nazar tashlasak, bu zaminda qadimdan ilm-fan, madaniyat, hunarmandchilik, savdo-sotiq va davlatchilik an’analari rivojlanganini ko‘ramiz. Amir Temur va Temuriylar davri, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy maktabi, Alisher Navoiy dahosi, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk ajdodlarimizning jahon tamadduniga qo‘shgan hissasi bugungi milliy o‘zligimizning mustahkam ildizlarini tashkil etadi. Shu bois mustaqillikni faqat siyosiy hodisa sifatida emas, balki tarixiy xotiraning qayta tiklanishi sifatida ham baholash mumkin. Mustaqillik yillarida tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, ona tilimizga, urf-odatlarimizga va ma’naviy merosimizga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosi yangi avlodga yetkazila boshlandi.

Bu jarayon xalqning o‘zligini anglashida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki o‘z tarixini bilmagan xalq kelajagini ham to‘liq anglay olmaydi.

BUGUN: o‘zgarayotgan O‘zbekiston. Bugungi O‘zbekistonni 30-35 yil avvalgi O‘zbekiston bilan qiyoslash taraqqiyot jarayonining ko‘lamini yaxshiroq anglash imkonini beradi. Bugun shaharlarimiz qiyofasi o‘zgarmoqda, yangi ishlab chiqarish korxonalari, zamonaviy ta’lim muassasalari, tibbiyot markazlari, transport infratuzilmasi barpo etilmoqda.

Lekin zamonaviy taraqqiyot faqat yangi binolar bilan o‘lchanmaydi. Bu o‘zgarishlarning eng muhim jihati – insonning imkoniyatlari kengayib borayotgani. Tadbirkor o‘z biznesini boshlash, yosh o‘z bilimini namoyon qilish, mutaxassis zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, olim yangi tadqiqot olib borish, ijodkor o‘z g‘oyalarini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa jamiyatda yangi fikrlash muhitini shakllantirmoqda.

Yangi taraqqiyotning markazida – inson. Bugungi dunyoda davlatlarning raqobatbardoshligi haqida gap ketganda, ko‘pincha iqtisodiy ko‘rsatkichlar, tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish hajmi tilga olinadi. Ammo zamonaviy davrda eng katta boylik – inson kapitali. Bilimli, malakali, tashabbuskor va zamonaviy fikrlaydigan inson mamlakatning eng katta strategik resursiga aylanmoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonda ta’lim va yoshlar masalasiga katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Yoshlar uchun imkoniyatlar avvalgi davrlarga nisbatan ancha keng. Oliy ta’lim muassasalari, zamonaviy kasb-hunarlarni o‘rganish, xorijiy tillarni egallash, xalqaro dasturlarda ishtirok etish, axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Ammo imkoniyatning mavjudligi hali natijaning o‘zi emas. Eng muhim masala – undan qanday foydalanish. Bugungi yoshlarga endi faqat o‘qishning o‘zi yetarli emas. U o‘rganishi, izlanishi, savol berishi, yangilik yaratishi va o‘z bilimini amaliyotga tatbiq eta olishi kerak. Chunki kelajakda mamlakatlar o‘rtasidagi asosiy raqobat tabiiy boyliklar uchun emas, bilim va texnologiyalar uchun kechadi.

Taraqqiyotning yangi mezoni – sifat. Bugun dunyo juda tez o‘zgarmoqda. Kecha yangilik bo‘lgan texnologiya bugun oddiy vositaga aylanmoqda. Kasblar o‘zgarib, ayrimlari yo‘qolib, yangilari paydo bo‘lmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda. Bunday sharoitda taraqqiyotga eski mezonlar bilan baho berish mumkin emas. Endi savol:

“Qancha ishlab chiqardik?” emas, “Qanchalik sifatli ishlab chiqardik?”

“Qancha yoshni o‘qitdik?” emas, “Ularning bilimidan qanday natija oldik?” “Qancha texnologiya sotib oldik?” emas, “Qancha yangi texnologiyani o‘zimiz yaratdik?” degan savollarga ko‘proq e’tibor qaratishni talab qiladi.

Bu – yangi taraqqiyot falsafasi.

KELAJAK: bugungi qarorlardan boshlanadi. *Keyingi 35 yilda O‘zbekiston qanday mamlakat bo‘ladi?* Bu savolga javobni faqat davlat idoralari yoki mutaxassislar berishi kerak emas.

Kelajak – har birimizga tegishli. Maktabdagi o‘quvchi qanday bilim olishi, universitet talabasi qanday mutaxassis bo‘lishi, tadbirkor qanday biznes yaratishi, olim qanday kashfiyot qilishi, o‘qituvchi qanday avlodni tarbiyalashi – bularning barchasi mamlakat kelajagini belgilaydi. Shu sababli kelajak haqida gapirganda, faqat yirik loyihalarni emas, insonning kundalik mas’uliyatini ham unutmaslik kerak. Vatanga xizmat qilish faqat katta lavozimda ishlash yoki katta loyihani amalga oshirish degani emas. O‘z kasbini halol va sifatli bajarish ham Vatanga xizmatdir. Yaxshi o‘qish ham Vatanga xizmat. Ilm olish, yangi texnologiya yaratish, yosh avlodga bilim berish, tadbirkorlik qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish – bularning barchasi mustaqil mamlakat taraqqiyotiga qo‘shilgan hissa.

Yangi avlod – Yangi O‘zbekiston. Bugungi yoshlar mustaqillikning dastlabki yillaridagi qiyinchiliklarni ko‘rmagan. Ular mustaqil O‘zbekistonda tug‘ildi, zamonaviy maktablarda ta’lim oldi, internet va raqamli texnologiyalar bilan ulg‘aydi. Bu avlodning dunyoqarashi keng.

Ular dunyoning boshqa mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bir xil axborot makonida yashamoqda. Demak, yangi avlod oldiga qo‘yiladigan talab ham yuqori bo‘lishi tabiiy. Biz ularga faqat “Vatan kelajagi sizning qo‘lingizda” deb aytish bilan cheklanmasligimiz kerak. Ularga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun real sharoit va imkoniyat yaratishimiz kerak. Chunki bugungi yosh – ertangi mutaxassis, olim, muhandis, o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor va davlat arbobi. Uning bugungi bilimi – mamlakatning ertangi raqobatbardoshligi.

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yili – bu, bir tomondan, tarixiy xotira, ikkinchi tomondan, bugungi imkoniyat, uchinchi tomondan, kelajak oldidagi mas’uliyat.

KECHA – bizga o‘zlikni anglashni, tariximizni qadrlashni va mustaqillikning qadriga yetishni o‘rgatdi.

BUGUN – bizga yangi imkoniyatlar, yangi texnologiyalar, yangi bilimlar va yangi taraqqiyot yo‘llarini taqdim etmoqda.

KELAJAK – bizdan yanada katta mas’uliyat, bilim, mehnat va tashabbusni talab qiladi.

Shunday ekan, mustaqillikning 35 yilligi biz uchun faqat “35 yil” degan raqam emas.

Bu – bosib o‘tilgan yo‘l. Bu – erishilgan tajriba. Bu – bugungi imkoniyat. Va eng muhimi – bu kelajak sari yangi qadam.

Begali TURDIALIYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti o‘qituvchisi







Vatanparvarlik

MUAMMOLI YOSHLAR VA HARBIY MASHG‘ULOTLAR



Har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, uning yosh avlodiga bog‘liq. Globallashuv, raqamli axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlarning kuchli ta’siri, zararli odatlar, huquqbuzarlik va turli g‘oyaviy tahdidlar ayrim yoshlarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli muammoli yoshlarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi.

Harbiy mashg‘ulotlar bu jarayonda faqat jangovar tayyorgarlik vositasi emas, balki shaxsning irodasi, mas’uliyati, jamoada ishlash ko‘nikmasi, ruhiy barqarorligi va Vatanga sadoqatini rivojlantiruvchi kompleks tarbiyaviy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogika va psixologiya fanida “muammoli yoshlar” deganda xulq-atvorida og‘ishlar kuzatiladigan, ijtimoiy moslashuvi qiyinlashgan yoki salbiy tashqi ta’sirlarga moyil bo‘lgan yoshlar nazarda tutiladi. Bunday holatlar oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, iqtisodiy omillar, ta’limdagi uzilishlar yoki zararli axborot oqimlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni jazolash emas, balki ularning salohiyatini ijobiy faoliyatga yo‘naltirish samaraliroq natija beradi. Ayniqsa, jismoniy faollik, sport va intizomga asoslangan mashg‘ulotlar yoshlarning ijtimoiy moslashuviga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

HARBIY MASHG‘ULOTLARNING TARBIYAVIY VA PEDAGOGIK MOHIYATI

Harbiy mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash bilan cheklanmaydi. Ular shaxsning quyidagi muhim sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi:

– intizom va yuqori mas’uliyat;

– qat’iyat, sabr-toqat va irodaviy chidamlilik;

– jamoada ishlash madaniyati va yelkadoshlik hissi;

– liderlik, tashabbuskorlik va o‘z-o‘zini boshqarish;

– tezkor va tanqidiy fikrlash;

– stressli va kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish.

Harbiy-amaliy mashg‘ulotlarda belgilangan kunlik tartib-qoidalarga rioya qilish, vazifalarni aniq bajarish va jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish odati shakllanadi. Aynan shu jihatlar muammoli yoshlarning xulq-atvorini, ulardagi deviant *(og‘ishgan)* xatti-harakatlarni ijobiy tomonga o‘zgartirishda muhim omil hisoblanadi.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH VA PSIXOLOGIK BARQARORLIK

Sog‘lom turmush tarzi nafaqat jismoniy chiniqish, balki sog‘lom ovqatlanish, ruhiy muvozanat, zararli odatlardan *(tamaki, alkogol, giyohvandlik)* voz kechish va faol hayot tarzini o‘z ichiga oladi.

Harbiy mashg‘ulotlar davomida amalga oshiriladigan muntazam jismoniy tayyorgarlik va ertalabki badantarbiya, harbiy-amaliy sport musobaqalari, to‘siqlardan o‘tish va taktik mashqlar, dala-o‘quv yig‘inlari, oriyentirlash va marsh tayyorgarligi yoshlarda sog‘lom hayotga barqaror ehtiyojni va organizmda jismoniy chidamlilikni shakllantiradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, muntazam jismoniy faollik depressiya va xavotirni kamaytiradi, o‘ziga ishonchni oshiradi hamda yoshlarning psixologik salomatligini mustahkamlaydi. To‘planib qolgan agressiv va salbiy energiya aynan muntazam jismoniy mashqlar orqali foydali va sog‘lom o‘zanga burib yuboriladi.

IXTISOSLASHTIRILGAN HARBIY MAKTABLARNING TARBIYAVIY VA NAMUNAVIY ROLI

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni vatanparvarlik va yuksak intizom ruhida tarbiyalashda ixtisoslashtirilgan harbiy ta’lim muassasalari alohida o‘rin tutadi.

“Temurbeklar maktabi” – Amir Temurning harbiy san’ati, davlatchilik va axloqiy tamoyillariga asoslangan ta’lim maskani. Bu yerda yo‘lga qo‘yilgan qat’iy kun tartibi, chuqurlashtirilgan akademik, jismoniy va axborot-texnologik tayyorgarlik yoshlarda o‘z-o‘zini boshqarish, liderlik va kuchli irodani shakllantiradi. Bu tajriba og‘ishgan xulq-atvorga ega



o‘smirlarga o‘z xatolarini anglash va xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirishda namuna bo‘ladi.

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi – milliy qahramonimizning mardligi va Vatanga cheksiz sadoqatini yoshlar orasida targ‘ib qiluvchi muhim manba. Ushbu maktabdagi harbiy-amaliy va jangovar-jismoniy mashg‘ulotlar, yakkakurash turlari bo‘yicha chiniqishlar yoshlarni qat’iyatli va jasur bo‘lishga undaydi. Salbiy ta’sirlarga beriluvchan o‘smirlarni bunday muhitga jalb etish ularda milliy g‘arur va shaxsiy mas’uliyatni shakllantirishda yuqori natija beradi.

Ushbu maktablarning faoliyat modeli va intizomiy tizimi muammoli yoshlar bilan ishlashda pedagogik va psixologik standart sifatida xizmat qiladi.

Umumta’lim maktablari va akademik litseylarda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik *(ChQBT)* fani barcha yoshlarni, jumladan ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi o‘smirlarni ham qamrab oluvchi asosiy vositadir.

ChQBT mashg‘ulotlari orqali:

– saf tayyorgarligi va harbiy intizom orqali o‘smirlarda betartiblik va nazoratsizlik siqib chiqariladi;

– fuqaro mudofaasi va tibbiy tayyorgarlik bo‘limlari orqali insonparvarlik va favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalari shakllanadi;

– harbiy qism va ta’lim muassasalari hamkorligidagi uchrashuvlar, “Vatan tayanchi” harakati, harbiy sport musobaqalari hamda dala-o‘quv mashg‘ulotlari yoshlarning harbiy kasbga qiziqishini oshirish bilan birga ularning ijtimoiy faolligini ham kuchaytiradi.

Vatanparvarlik bu faqat davlat ramzlariga hurmat emas, balki jamiyat oldidagi mas’uliyatni his qilish, qonunlarga rioya etish, tinchlikni qadrlash va ekstremistik hamda buzg‘unchi go‘yalarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilishdir.

MUAMMOLI YOSHLAR BILAN ISHLASHDA HARBIY MASHG‘ULOTLARNI QO‘LLASH TAMOYILLARI

Harbiy mashg‘ulotlarni muammoli yoshlar bilan ishlashda qo‘llash quyidagi pedagogik va psixologik tamoyillarga asoslanishi zarur:

– shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv;

– ijobiy rag‘batlantirish va e’tirof etish;

– psixologik qo‘llab-quvvatlash va psixologik suhbatlar;

– murabbiy *(komandir/pedagog)* va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonchli muloqot;

– jamoaviy faoliyat va sport, madaniy tadbirlarni mutanosib olib borish.

Bunday yondashuv yoshlarning salbiy xulq-atvorini jazolash orqali emas, balki uning ijobiy salohiyatini ochish orqali o‘zgartirish imkonini beradi.

Muammoli yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– Harbiy-vatanparvarlik mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va simulyatsion qurilmalar asosida takomillashtirish.

– Harbiy qismlar, ta’lim muassasalari, mahalla va ota-onalar hamkorligini mustahkamlash.

– “Temurbeklar maktabi” va Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi tajribasini ommaviy ta’lim va ChQBT tizimiga kengroq tatbiq etish.

– Psixologik xizmat va mentorlik *(ustoz-shogird)* tizimini rivojlantirish.

– Sport, turizm va harbiy-amaliy musobaqalar sonini ko‘paytirish.

– Ijtimoiy xavf guruhidagi yoshlar uchun individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.

Muammoli yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish faqat tibbiy yoki pedagogik masala emas, balki jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va inson kapitalini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq strategik vazifadir.

Harbiy mashg‘ulotlar yoshlarni jismonan chiniqtiradi, ruhiy jihatdan barqaror qiladi, ularda intizom, mas’uliyat, jamoaviylik va Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantiradi. Ayniqsa, “Temurbeklar maktabi” va Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi singari



muassasalar tajribasi, ChQBT mashg‘ulotlari hamda vatanparvarlik tarbiyasining uyg‘unligi muammoli yoshlarning ijtimoiy moslashuvi hamda sog‘lom hayot tarzini qaror toptirishda yuqori samara beradi.

Shu bois harbiy mashg‘ulotlarni zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish, davlat organlari, ta’lim muassasalari, mahalla va oilaning hamkorligini kuchaytirish orqali sog‘lom, bilimli, mas’uliyatli va Vatanga sadoqatli yosh avlodni tarbiyalash mumkin.

Polkovnik Odil ANARBAYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug fakulteti boshlig‘i



Surat tahririyat arxividan olindi

O‘quv-mashg‘ulot

Zamonaviy jangovar tayyorgarlikda harbiy xizmatchining jismoniy va kasbiy mahorati bilan bir qatorda uning ruhiy barqarorligi, mustahkam irodasi va har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Toshkent operativ yo‘nalishida kuchlarni kompleks qo‘llashda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va psixologik ishlar masalalariga bag‘ishlangan ko‘rgazmali taktik o‘quv mashg‘uloti o‘tkazildi.



JANGOVAR TAYYORGARLIKDA RUHIY BARQARORLIK MUHIM





Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur o‘quv harbiy xizmatchilarning murakkab va keskin vaziyatlarda to‘g‘ri boshqara olish, ruhiy bosimlarga bardosh berish, jamoa bilan hamjihat harakat qilish va belgilangan vazifani aniq bajarish ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga qaratildi.

Taktik o‘quv davomida zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar tajribasi, dunyo va mintaqada kechayotgan harbiy-siyosiy jarayonlar, axborot makonidagi turli ta’sirlar hamda ularning shaxsiy tarkib ruhiyatiga ta’siri tahlil qilindi.

Mashg‘ulotlarda harbiy xizmatchining turli murakkab vaziyatlarda o‘z vazifasini sidqidildan bajarishiga alohida e’tibor qaratildi.

– Jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarishda harbiy xizmatchining ruhiy tayyorgarligi kasbiy mahorati kabi muhim ahamiyatga ega, – deydi polkovnik Isroil Sobirov. – Chunki murakkab vaziyatda insonning o‘zini boshqara olishi, qat’iyat bilan harakat qilishi va to‘g‘ri qaror qabul qilishi ko‘p jihatdan uning ruhiy barqarorligiga bog‘liq. Shuning uchun axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur. Zamonaviy jang maydonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan keskin va kutilmagan vaziyatlar Vatan himoyachilaridan nafaqat jismoniy chidamlilik, balki psixologik barqarorlikni ham talab etadi. Ayniqsa, og‘ir sharoitlarda vazifani izchil bajarish, jamoa manfaatini shaxsiy hissiyotlardan ustun qo‘yish va berilgan buyruqni aniq ijro etish yuksak ruhiy tayyorgarlikni taqozo qiladi.

MILLIY RUH – MUSTAHKAM IRODA MANBAI

O‘quvlar jarayonida shaxsiy tarkibning vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish, milliy g‘urur va Vatanga sadoqat hissini mustahkamlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Yurt himoyachisi uchun jangovar tayyorgarlikning eng muhim asoslaridan biri o‘z kasbi va burchiga sadoqatdir. Vatan taqdiri, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi uchun mas’uliyat hissi har bir harbiy xizmatchining qalbida mustahkam qaror topgandagina u har qanday sinovni munosib qarshi ola biladi. Shu nuqtayi nazardan, mashg‘ulotlarda ajdodlarimizning jasorati, milliy harbiy an’analar va Vatan himoyasi yo‘lidagi fidoyilik namunalari asosida harbiy xizmatchilarda yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga ham e’tibor qaratildi.









Muallif suratga olgan



AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI BARQARORLIK

Bugungi kunda harbiy xizmatchiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar faqat jang maydoni bilan cheklanib qolmaydi. Axborot makonida tarqalayotgan turli yolg‘on xabarlar, ishonchsiz ma’lumotlar va psixologik ta’sirlar ham shaxsiy tarkibning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bois taktik o‘quv davomida harbiy xizmatchilarning axboriy psixologik ta’sirlarga nisbatan barqarorligini oshirish, turli provokatsion ma’lumotlarga tanqidiy yondashish, ishonchli manbalardan foydalanish va axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish masalalari ham misollar bilan ko‘rib chiqildi.


Mashg‘ulotlarda nazariy bilimlar amaliy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirildi. Turli vaziyatli topshiriqlar va psixologik mashqlar orqali Vatan posbonlarining murakkab sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi, o‘zini boshqara olishi va jamoa bilan hamjihat harakat qilishiga qaratilgan ko‘nikmalari mustahkamlandi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy armiyaning jangovar salohiyati faqat qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan emas, balki mustahkam iroda, yuksak ma’naviyat, Vatanga sadoqat va har qanday vaziyatda o‘z vazifasini sharaf bilan bajara oladigan ruhan barqaror harbiy xizmatchilar bilan belgilanadi. O‘tkazilgan ushbu o‘quvlar ana shu maqsadlarga xizmat qilgani bilan ham ahamiyatli bo‘ldi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”







Millat fidoyilari







XOTIRA OLDIDA BOSH EGIB

“G‘ALABA BOG‘I”DA BA’ZAN SUKUT HAM GAPIRADI. U YERDA HAR BIR QADAM, HAR BIR YODGORLIK, HAR BIR ISM ORTIDA BIR INSONNING TAQDIRI, BIR OILANING SOG‘INCHI, BIR ONANING KO‘ZYOSHLARI VA BUTUN BIR XALQNING XOTIRASI MUJASSAM.

Ko‘ksida yuragi urib turgan inson borki, lahza bo‘lsa ham iftixor tuyadi, ko‘zlarida yosh aylanadi. Bugun ham bu dargohda yig‘ilgan insonlarning qalbida bir olam iztirob, sog‘inch va iftixor bilan “Millat fidoyilari” monumenti qoshida turganiga guvohman.

19-avgust kuni ana shu muqaddas maskanda Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar xotirasiga bag‘ishlangan **“Vatan uchun qalqon bo‘lgan o‘g‘lonlar xotirasi abadiy”** mavzusida ma’naviy-ma’rifiy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Tadbir boshlanishidan avval “Millat fidoyilari” monumenti poyiga gulchambar qo‘yildi. Vatan sarhadlarini himoya qilish, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash yo‘lida jonini fido qilgan o‘g‘lonlar xotirasi bir daqiqalik sukut bilan yod etildi. **Bir daqiqa... Bir qarashda juda qisqa vaqt. Ammo ayriliqni boshdan kechirgan ota-ona uchun farzandining bir umri sig‘adigan darajada uzun asli bu daqiqa.** Odam hayotini sarhisob etishi uchun yillar kerak emas, sog‘ingan insonini ko‘z oldiga keltirish uchun lahza kifoya. Bu bir daqiqa esa qaysidir ma’noda qahramonlar oldidagi hurmat va ularga ehtiromdir.

Tadbirni mudofaa vazirining o‘rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev ochib berib, qahramon o‘g‘lonlar xotirasini abadiylashtirish, ularning jasoratini yosh avlodga yetkazish naqadar muhim ekanini ta’kidladi.

Konferensiya “Ajdodlar izidan” harbiy-tarixiy jamiyati bilan hamkorlikda tashkil etildi. Mazkur jamoa o‘z faoliyati orqali xalqimiz va harbiy tariximizdagi unutilmas siymolar, ularning hayot yo‘li va Vatan oldidagi xizmatlarini o‘rganib, xotirasini kelajak avlodga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadbirda mustaqillik yillarida halok bo‘lgan qahramonlarning oila a’zolari ham ishtirok etdi. Bir vaqtlar eshikdan kirib kelgan, “Ona”, deb chaqirgan, otasining yoniga o‘tirgan, ukalariga aka, singillariga suyanch bo‘lgan farzandni yana bir bor eslashdi. Ko‘zlarida yosh, qalbida esa faxr-iftixor bilan turgan ota-onalar farzandining yurt oldida nechog‘liq ardoqda ekanini ko‘rib, o‘zlarini tiyib turolmadi. **Ularni baxtiyor desam, xato bo‘lar, ammo shu tuproqning, shu yurtning koriga yaragan qahramonlar onasi ekanida baxtga to‘ldi desam, mubolag‘a bo‘lmaydi.**

Konferensiya davomida millat fidoyilarining jasorati yodga olinib, ularning xotirasini abadiylashtirish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini mustahkamlash haqida so‘z yuritildi.

Tadbir davomida marhum serjant Ulug‘bek Barnoyevning otasi Abdulla ota Barnoyevning **“Mangu barhayotsan, jigarbandim”** nomli kitobi taqdimoti ham o‘tkazildi. Kitob nomining o‘zi ham ko‘p narsani aytib turibdi.



“Mangu barhayotsan, jigarbandim...”

Bu shunchaki kitob nomi emas. Bu ota yuragining farzandiga aytgan so‘zi. Farzand bu dunyodan ketgan bo‘lishi mumkin. Ammo ota uchun u hamisha barhayot. U hamon uyda. Hamon xotiralarda. Hamon otaning ko‘z o‘ngida. Bunday xotiralarni vaqt ham o‘chira olmaydi. Chunki ayrim insonlar hayotdan ketadi, ammo yaqinlarining qalbida mangu qoladi. **Kitobni varaqlab ko‘rar ekansiz, yuragingiz bir silkinib oladi. Yurak qoni bilan yozilgan so‘zlar tirik iztirobning o‘zginasidir. Sog‘inchning so‘zga ko‘chgan ko‘rinishidir.**

Xotira insoniyatning eng buyuk ma’naviy boyliklaridan biridir. Ayniqsa, Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligi yo‘lida jonini fido qilgan o‘g‘lonlarni yod etish nafaqat ularning yaqinlari, balki butun xalqning muqaddas burchidir. Chunki bugungi osuda kunlar zamirida kimlarningdir armoni, ota-onalarning sog‘inchi, farzandlarning yetim qolgan bolaligi va yurt uchun tikilgan mardona qadamlar bor. “G‘alaba bog‘i”dagi har bir yodgorlik bizga ana shu haqiqatni eslatib turadi. **Qahramonlarning nomi va jasorati yodga olingan har bir tadbir esa ularning xotirasini yana bir bor tiriltiradi.** Zero inson hayotdan ko‘z yumishi mumkin, ammo uning Vatan uchun qilgan ezgu amali, xalq uchun chekkan zahmati hech qachon o‘lmaydi, unutilmaydi.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”







Qahramonlar nomi barhayot

Mana, ikki yildirki, “Millat fidoyilari” – Vatan tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan yigitlar hayotini o‘rganaman. Ular haqida esse, maqola, she’rlar qoralayman. Biri biridan jasur yigitlarning qanday inson bo‘lgani haqida yaqinlari, do‘st-birodarlarini suhbatga tutaman.



“ILYOSGA YORDAM BERING!..”

Dunyoda hech bir narsa o‘z-o‘zidan bo‘lmas ekan. Shu ikki yillik o‘rganishlarim natijasi o‘laroq aytishim mumkinki, Vatan, millatdek ulug‘ nomni isming yoniga qo‘shib olish shunchaki bo‘lmaydi. Yurt qahramonlarini o‘zi tanlaydi, o‘zi istagan insonlargagina beradi nomini. Men hozir sizlarga hikoya qilib beradigan yigit ham o‘sha Vatan bergan ulug‘ nomni halollab olgan qahramonlardan biridir.

Katta leytenant Mahmudjon Jalilov 1975-yil 11-iyunda Andijon viloyatining Izboskan tumani, Yangi Zamon qishlog‘ida tug‘ilgan. 1982-yilda tumanidagi 17-o‘rta maktabda o‘qishni boshlaydi. Yoshlikdan qalbidagi ofitser bo‘lish orzusi uni doimiy o‘z ustida ishlashga, sportning boks turi bilan shug‘ullanishga undagan. Mahmudjon tanlagan kasbiga erishish oson emasligini bilgan holda maktab davridan darslarni, jumladan o‘sha davr talabiga ko‘ra, rus tilini qunt bilan o‘rganishga harakat qilgan.

1990-yilda Farg‘ona shahrida joylashgan, o‘sha paytda “Suvorovchilar maktabi” deb nomlangan harbiy akademik litseyga o‘qishga kiradi va orzusi tomon dastlabki qadamni tashlaydi. Tahsil olish davrida Mahmudjon intizomli, harbiy nizom, qonun-qoidalar asosida yashash nima ekanini anglab yetadi. O‘g‘lon o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida sportning boks va qo‘ljangi turlari bilan shug‘ullanib, turli musobaqalarda ishtirok etadi.

Aslida bu intilishlarning hammasi kelajakda harbiy, xususan desantchi bo‘lishiga qaratilgan edi. U 1993-yilda harbiy maktabni tamomlashi bilan o‘z taqdirini harbiy hayot bilan bog‘lash qaroriga kelib, hujjatlarini Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtiga topshiradi. Shu orada Mahmudjon imtihonlarga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Albatta, uning bu intilishlari besamar ketgani yo‘q. Bilim yurti qabul komissiyasi Mahmudjon Jalilovning qobiliyatlarini hisobga olib, uni Havo-desant qo‘shinlari fakultetiga o‘qishga qabul qiladi.

Bilim yurtida tahsil olish davrida harbiy san’atning sir-asrorlarini o‘rganadi. Mahmudjonni kursdoshlari xushchaqchaq, fidoyi, ko‘ngli toza, yuksak insoniy fazilatlar sohibi sifatida yodga oladi. Uning eng sevimli mashg‘uloti sport va parashyut bilan sakrash edi, deydi Mahmudjon bilan bir safda xizmat qilgan do‘stlari.



1997-yilning iyun oyida Mahmudjon Jalilov davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib, havo-desant qo‘shinlari taktik qo‘mondonligi mutaxassisligi bo‘yicha bilim yurtini tamomlaydi. Leytenant harbiy unvonini olgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlardan biriga guruh komandiri lavozimiga tayinlanadi.

Yosh ofitser ko‘zga ko‘ringan va shaxsiy tarkibga mohir komandir bo‘lgani sababli O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va “NATO” tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturida ishtirok etadi.

Katta leytenant Mahmudjon Jalilov boshchilik qilayotgan shaxsiy tarkib 1999-yili Toshkent viloyati hududida yovuz niyatlar bilan kelgan bir guruh jangarilarni yo‘q qilishdagi jangovar operatsiyalarda jonbozlik ko‘rsatadi.

2000-yilning avgustida Sariosiyo va Uzun tumanlarida sarhadlarimizga bostirib kirgan terrorchilarga qarshi kurashda Mahmudjon jangovar guruhi bilan yurtimiz osoyishtaligini ta’minlashga munosib hissa qo‘shdi.

Katta leytenant Mahmudjon Jalilovning safdoshlari qayd etishicha, tog‘li hududga joylashib olgan dushman uning bo‘linmasiga qarata yoppasiga o‘t ochgan. Tezda ular o‘zlarini panaga olgan holda dushmanning o‘t ochish pozitsiyasini bartaraf etadi. Lekin bir necha jangchilar og‘ir yaralanadi. Ularning orasida Mahmudjon ham bor edi. Safdoshlari unga tibbiy yordam ko‘rsatishga oshiqadi. 5-6 kishi uni ko‘targancha yordamga yetib kelgan vertolyot tomon yuguradi. Ammo u qo‘li bilan imo qilib, unga yordamga kelganlarni to‘xtatishga urinadi. Imo-ishoralarini tushunmayotganlarini anglagach esa shifokor Bahrom Ochilovga qarab, **“Do‘xtir, meni qo‘ying, holimni bilib turibsiz... Undan ko‘ra Ilyosga yordam bering, iltimos. U hali yosh, hayotini saqlab qoling”**, deydi. Katta leytenant Mahmudjon Jalilov o‘z jonidan ko‘ra safdosh do‘stlarining hayotini saqlab qolishni afzal bildi. Ilyosning hayoti saqlab qolindi. Mahmudjon esa...

Insonning kimligini ba’zan uning butun umri emas, hayotining eng so‘nggi lahzasi ko‘rsatib beradi. Mahmudjon Jalilovning ham so‘nggi daqiqalari uning qanday inson bo‘lganini ko‘rsatdi. U o‘lim bilan yuzma-yuz turgan paytda ham o‘zini o‘ylamadi. “U hali yosh, hayotini saqlab qoling”, degan so‘nggi iltimosi esa uning yuragidagi insoniylikdan darak beradi.

Balki, qahramonlikning eng katta mezoni ham shudir – o‘zingga kerak bo‘lgan hayotni boshqaga ravo ko‘ra olish. Mahmudjon o‘z hayoti misolida Vatanga xizmat qilish, safdoshga sadoqat va insoniylik nimaligini ko‘rsatib ketdi. Uning hayoti tugadi, ammo qilgan ishi tugamadi. Chunki ayrim insonlar vafotidan keyin ham yashashda davom etadi – kimningdir xotirasida, kimningdir duosida, kimningdir hikoyasida.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”

Yodnoma

“YOSHLIK”DA O‘TGAN DAMLAR...

(Davomi. Boshi o‘tgan sonlarda)



O‘tgan asrning 80-yillari edi. Toshkent davlat universiteti Jurnalistika fakulteti kechki bo‘limi talabasi edim. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi targ‘ibot va tashviqot bo‘limiga matn teruvchi bo‘lib ishga joylashdim. Bo‘lim boshlig‘i shoir Turob To‘la samimiy odam ekan. Biror yumush aytsa, “qizim”, deb murojaat qilardi.

Binoning ikkinchi qavatida Abdulla Oripov, Gulchehra Nurillayeva, Muhsin Aliyev bitta xonada ishlardi. Gulchehra opa bilan darrov til topishib oldik. Bir kuni opa she‘rlarini mashinkada ko‘chirib berishimni, xizmatimga pul to‘lashini aytib qoldi. Shunda otamning: “Shoir va yozuvchilarning ishini yozsang, pul olmagin, ularning mehnatini qadrla, puling tugasa, men jo‘natib turaman”, deganlari yodimga tushib, opa uzatgan pulni olmadim. Turgan gap, o‘sha paytlar ham yozuvchi-yu shoirlar uyushmaga tez-tez kelib turar, asarlarini mashinkada ko‘chirtirar, ularga mening saxiyligim yashin tezligida yetib borgan edi. El ardoqlaydigan insonlarga yordamim tegayotganidan boshim osmonda yurgan kunlarning birida menga “haydalish” kuyi chalindi. Chunki bo‘limdagi barcha hujjatlar, ma’ruzalar rus tilida tayyorlangani, bunga esa mendek chekka qishloq maktabida o‘qigan qizda uquv yo‘qligi ayon bo‘lib qolgan edi.

Xonada xafa bo‘lib o‘tirsam, uyushmaning xo‘jalik ishlari bo‘yicha boshlig‘i Qahhor Mullajonov yonimga keldi. U kishi mening ishdan bo‘shaganimni hamkasb qizlardan eshitgan chog‘i:



– Onam, to‘xtab turing, – dedi menga qarab.

– Kecha “Yoshlik” jurnali shu binoga ko‘chib keldi. Men hozir, – deya xonadan chiqib ketdi va birpasda qaytib kelib: – Majlislar zalining yonidagi xona Erkin Vohidovga berildi. Bir uchrang-chi, onam, – dedi.

Nomdor shoir o‘tirgan xonaga iymanibgina salom berib kirdim.

– Singlim, mana shuni oq qog‘ozga ko‘chirib keling-chi, – dedi Erkin aka menga qandaydir gazetadagi maqolani ko‘rsatib.

Xonaga qaytib, belgilangan maqolani ko‘chirdim va yana qaytib bordim. Erkin aka matnni diqqat bilan o‘qib chiqib:

– E, qoyile, birorta xato yo‘q. Imlo savodingiz yaxshi ekan. Endi manavi qog‘ozga mening nomimga ariza yozing. Sizni “Yoshlik” jurnaliga ishga oldik, – dedi.

O‘zimda yo‘q xursand edim. Chunki ertalab soat to‘qqizda ishdan bo‘shatilib, yaxshi insonlarning ko‘magida o‘sha kuniyoq yangi ishga qabul qilingan edim-da...

***

Yozuvchilar uyushmasining kichik zalida jurnal jamoasi bir stol atrofida ishlardi. To‘rda bosh muharrir Erkin Vohidov, so‘ngra Erkin A’zam, Sa’dulla Siyoyev, Abdulla Sher, Nosir Muhammad, Xayriddin Sulton, Gulchehra Jo‘rayeva, Sulaymon Rahmon, texnik muharrir Valentina Urusova, matn teruvchi Ra’no Botirova va kamina jurnalning ilk xodimlari edik.

Ish kunimiz ertalab boshlanib, kech soat o‘nlarga qadar davom etardi. Hech xotiramdan chiqmaydi, rahbarimiz Erkin Vohidov kundalik yig‘ilishlarmi yoki bayram bahona bir dasturxon atrofida choylashamizmi, albatta ikki og‘iz shirin lutf aytib, xodimlarning ko‘nglini tog‘dek ko‘tarardi.

– Singillarim, – derdi biz, yosh qizlarga qarab, – hali bir davrlar keladiki, ish vaqtidan keyin aslo ortiqcha ishlamaysiz. Hozir esa tarixda qoladigan ishlarni qilyapsiz. Hammangizdan juda-juda xursandman...

Bunday maqtovlardan keyin bizning charchoqlarimiz chiqib ketardi.

Kunlarning birida hozirgi Alisher Navoiy nomidagi san’at saroyiga “Sevimli Raja” degan hindcha kino kelgani haqida eshitib qoldik. Qizlar darhol o‘rtada pul tashladik-da, chipta olib kelishga Surayyoni jo‘natdik. U soat uchdagi seansga uchta chipta bilan qaytib kelgach, bosh muharrirdan ruxsat so‘radik. Kutganimizdek rad etildi. Chunki o‘sha kunlarda jurnalning ilk soni uchun tahrirdan o‘tgan materiallar mashinkaga topshirilgan, hammamiz bosh ko‘tarmay ishlayotgan edik.

Lekin biz soat ikkidan o‘ttiz daqiqa o‘tganda binodan sassizgina chiqib ketdik va “Bopladig-a?” degan o‘y bilan maza qilib kino ko‘rdik. Ammo ichki hadik bor edi. O‘sha kuni qo‘rqqanimizdan ishxonaga kelmadik. Ertasi kuni yurak hovuchlab metroda ishga kelayotsam, vagonning narigi boshida Erkin Vohidov tik turgancha kelyapti. Men ko‘nglimdagi vahima sabab o‘zimni ko‘rmaslikka oldim. Shoir binoga kirib ketgach, sekin orqalaridan yurdim. Kutilganidek soat o‘nda meni Erkin Vohidov chaqirayotganini aytishdi.

– Tamom! Ey xudoyim, o‘zing asragin! – dedim pichirlab.

Qizlar ham sarosimaga tushib qoldi. Salom berib, kirib borsam, Erkin aka yaxshi kayfiyat bilan:

– Xo‘sh, Gulixon singlim, “Sevimli Raja” yoqdimi? – dedi.

O‘n daqiqa oldin gunohining og‘irligidan xafa bo‘lib o‘tirgan men hamma narsani unutibman. Erkin akaning nigohidan kinoga juda qiziqyapti, deb o‘ylab ishtiyoq bilan “Sevimli Raja” filmi tafsilotlarini gapirib ketibman. Bir mahal shoir yerga nigoh tashlagancha judayam mayin tabassum qildi. Shunda qovunning kattasini



Suratlar muallif arxividan olindi

tushirganimni anglab yetdim. Darhol gapdan to‘xtadim. Ikki qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib:

– Erkin aka, bizni kechiring, ikkinchi bunday ish qilmaymiz, – dedim qip-qizarib.

Shoir yana o‘ziga xos ulug‘vorlik bilan samimiy tabassum qildi.

– Mayli, singlim, biz ham sizlardek yosh bo‘lganmiz. Boravering, ishlaringizga qarang, – dedi.

Uyatdan yuzlarim qizarib xonadan chiqib ketdim.

***

Alisher Navoiy nomidagi Markaziy kutubxonaga borib, jurnalning roman chop etilgan sonlarini bittama-bitta varaqlay boshladim. Asar qahramonlari go‘zal Mariya, hamisha sarxush Margo, e’tiqodli hazrat Ioram, Bachana tilidan kuylangan barcha qo‘shiqlarni nafaqat diqqat bilan o‘qib, balki yon daftarimga ham yozib oldim. Gapning ochig‘i, jurnalning



o‘ninchi sonida bosilgan parchadagi mana bu satrlar savolimga javobdek tuyuldi.

Bahor fasli o‘tib, gul so‘lmoqqa
boshlaydi,
Boshqa bir gul unib-o‘sib,
gulistonda yashaydi.

Demak, mana shu ikki qator aytimni tarjimon qo‘ymagan, texnik muharrir xatosi bilan asar ichiga tushib qolgan, deb o‘yladim. Va birdan miyamga asarning “Sharq” nashriyotida bosilgan varianti bilan taqqoslash fikri kelib qoldi. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, aynan mening shubhamga sabab bo‘lgan ikki qator nazmiy ijod namunasi kitob variantida ham berilgan edi. Faqat kitobda tarjimon Nizom Komilov “Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” poemasidan muallif olgan satrlarni Maqsud Shayxzoda va Mirtemir tarjimalaridan foydalanilgan”ini qayd etadi. Shunda ko‘zlarim yarq etib ochildi. Maqsud Shayxzoda va Mirtemir domla Shota Rustavelining ushbu poemasini mumtoz adabiyotimiz uslublariga yondashgan holda mukammal tarjima qilgan.





Jurnalning yangi sonini siyosiy jihatdan tekshirib beruvchi korchalonlar esa bu ikki satrni Ganjaviydan deb bilgan va tahririyatni jazolamoqchi bo‘lgan. Harqalay bu kalondimog‘ kimsalarga o‘sha yillarda ochiqdan ochiq “Sizlar noto‘g‘ri aytyapsiz”, deb ham bo‘lmas edi. Masalaga aniqlik kiritilguniga qadar esa majlis chaqirilishi, kimningdir jazolanishi ham o‘ylangan spektaklning bir qismi bo‘lgan, ehtiyotkorlik va farosat bilan yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qolgan, deb o‘yladim.

Kutubxona zalida asarning jurnal va kitob variantini taqqoslay boshladim. Men shubha qilgan satrlar ham jurnal va kitobda bir xil berilgan. Va birdan o‘ninchi sondagi:

Biz yozmishning in’omiga
sevinaylik azaldan,
Jang sipohga, qo‘sh dehqonga
qismat ekan azaldan

satrlari kitobdan tushirib qoldirilganini bilib qoldim. Shu paytga qadar bu satr kimga tegishliligini bilmas edim. Ammo asar qahramoni hazrat Ioram Shota Rustavelining satrlari deb o‘qigan.

Endi Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” poemasining 2013-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida Ergash Ochilov mas’ulligida bosilgan variantini ko‘zdan kechira boshladim. Ikki satr ham kitobning bir yuz oltmish to‘qqizinchi sahifasida joylashgan “Dostondan hikmatlar” bo‘limida berilganini ko‘rib, yana hayratim oshdi. Oxirida asarning jurnal va kitob variantini bittama-bitta solishtirdim. Qani Nizomiy Ganjaviyning satrlari, deb o‘ylanib qoldim.

To‘satdan barcha haqiqat bor bo‘yicha namoyon bo‘ldi. Asardan parcha jurnal o‘ninchi sonining 21–48-sahifalarida berilgan edi. Jurnalning yigirma to‘rtinchi sahifasidagi yettita xatboshi kitob variantida tushirib qoldirilgan. Nega? Diqqat bilan sinchiklab o‘qiy boshladim. Aynan ana shu joyida asar qahramoni Bachana hazrat Ioramga yigirma to‘qqiz qator davomida kommunizmni shon-sharafga burkab nutq irod qiladi. Bachananing oxirgi gapini aynan keltiraman:

“ – Bizning xudomiz ana shunday aniq, tayinli, sizlarnikiga o‘xshab osmonda uchib yurmaydi.

Hazrat Ioram:

– Hay, mayli, iloyim, niyatingizga yeting, hurmatli Bachana! – dedi u bo‘shashibgina va o‘zi ham narigi yonboshiga ag‘darildi. Lekin baribir chidayolmay, qo‘shib qo‘ydi: – Darvoqe, sizdan binoyidek ruhoniy chiqishi mumkin ekan”.

***

Chehram yorishib ketdi. Demak, hammasi men o‘ylagandek emas, boshqacha bo‘lgan. Asarning jurnal variantida Ganjaviyning hech qanaqa satrlari kirib qolmagan. Hech kim, jumladan men ham texnik xatoga yo‘l qo‘ymaganman. Hamma gap sobiq kommunistik partiya obro‘si ustida ketgan. Asardagi Bachananing hazrat Ioram e’tiqodini o‘zgartirishga bo‘lgan urinishi samarasiz yakun topganini o‘sha davr mafkurasi qo‘llab-quvvatlamagan, bu holat partiya obro‘sining pastlashiga sabab bo‘lishidan qo‘rqib ketganlar.

Asarning jurnal variantiga Nizomiy Ganjaviy satrlarining kirib qolishi haqidagi uydirma esa o‘ylab topilgan. Agar texnik xatolik ro‘y berganda edi nasr bo‘limi mas’ullari Erkin A‘zamov, Xayriddin Sultonovdek zukko ijodkorlar bilgan bo‘lardi. Demak, ularning majlisda meni qoralamaganliklariga sabab shu bo‘lgan ekan-da...

Bosh muharrir o‘rinbosari Murodjon Mansurovning esa kelishilgan majlisda meni aybdor topishi, yoshligim bois go‘yo gunohimning kechirilishi jurnal boshiga kelishi mumkin bo‘lgan qora bulutlarni daf etish uchun aql va donishmandlik bilan o‘ylab topilgan g‘aroyib usul bo‘lgan ekan...

Bugun oradan shuncha yillar o‘tib, shuni alohida ehtirom bilan ta’kidlashim kerakki, atoqli shoirimiz Erkin Vohidov rahbarligida faoliyat yuritgan ijodkorlarning barchasi adolat va odamiylikni hamma narsadan ustun qo‘yuvchi inson va buyuk qalb egasi edi.

Guljahon MARDONOVA,
adiba, filologiya fanlari doktori

Odamiylik

Bu dunyo juda murakkab tuzilgan-a, aka? Tug‘ilish va o‘lim orasidagi masofa, aslida, bir nafaschalik umr. Ammo inson shu qisqa fursat ichida butun dunyoni yashab o‘tgandek bo‘ladi: sevgini his qiladi, g‘amdan kuyadi, yiqiladi, yana turadi, keyin kuladi, quvonadi. Aslida, bularning barchasi hayotning o‘zi. Faqat biz hammasidan yuz burib o‘tishga odatlandik. Ha, o‘rganib qoldik-da.



AKAMGA JIGARIMDAN BERAY(MI?)

Mayli, bularni qo‘ya turaylik. Shundoq ham tashvishli dunyoda boshingiz qotib yurgandir. Biroq yaqinda guvohi bo‘lganim – hayratimni oshirgan bir voqeani aytib bermasam bo‘lmaydi. Vaqtingiz bor-ku, to‘g‘rimi?

Tunov kuni Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik gospitaliga bordim. U yerda bosh jarroh tibbiy xizmat polkovnigi Tolibjon Siddiqovni uchratib qoldim. Tanisangiz kerag-a bu insonni? Yaxshi odam. O‘zligini yo‘qotmagan. So‘zida turadi, kasbini sevadi, ishiga sidqidildan yondashadi.

Qisqasi, bu inson umidi so‘na boshlagan bir hamyurtimizning kelajakka bo‘lgan ishonchini qayta uyg‘otdi. Harbiy shifokor sinov ortidan chinakam tarix yaratdi.

To‘xtang, hammasini avvalboshdan bayon qilay.

Andijonlik Elyorbek tun yarmida qornida paydo bo‘lgan kuchli og‘riqdan uyg‘onib ketadi. Qarasa, qorni shishgan, yegan ovqati hali ham hazm bo‘lmagan. U yoqqa ag‘anaydi, bu yoqqa to‘nkariladi, lekin foydasi yo‘q. Og‘riq borgan sari kuchayadi. Tongga qadar derazadan tashqariga ma’yus termilib chiqadi. So‘ng shifokorga uchrashadi. Tekshiruvlar natijasida sovuq tashxis qo‘yiladi: jigar sirrozi!

Halovatsiz soniyalar, dardli va g‘amli daqiqalar uning yoqasiga yopishdi. 39 yoshda inson hali hayotning eng katta rejalarini tuzib ulgurmagan bo‘ladi. Farzandlarining kamolini ko‘rish, ularga bosh bo‘lish, oilasi bilan yana qancha yaxshi kunlarni qarshi olish niyatida yuradi. Ammo kasallik reja so‘ramaydi. U kelsa, insonning butun hayotini birzumda boshqacha ko‘rsatib qo‘yadi. Bunday vaqtda bemor hamisha ham o‘zini tutib qololmaydi. Ayniqsa, og‘ir dardga chalingan kishining yuragi holsizlanadi, chorasizlikdan ko‘ngli g‘uborga to‘ladi. Xayolga, istamasang-da, bo‘lmag‘ur o‘ylar kelaveradi.

Biroq avvalini ko‘rsatgan va shu kunga tayyorlagan Zot so‘ngini ham bir hikmatga qorishtiradi. Yaxshilar mudom o‘zlari singari oqko‘ngillarga duch keladi. Bu azaliy yo‘l. Unda sodiqlik va mehrli bo‘lmoq kerak. Kerakki, g‘am chekinsin va umid shirasi ko‘ngillarni yoritsin. Qalblar orom olib, ertangi kunga ishonch uyg‘onsin.

Elyorbek g‘am to‘la ko‘ngil va g‘ijimlangan tashxis bilan harbiy gospitalga najot izlab keldi. Shu bilan uning shaxsiy dardi harbiy shifokorlarning eng muqaddas burchiga aylandi.

– Tasavvur qilyapsizmi, bu holat qanday mo‘jiza, – deydi Elyorbek Ismoilov chuqur xo‘rsinib. – Ehtimol, hali rizqimiz uzilmagandir. Ammo bu yaxshilarning himmati va mehnati bilan bo‘lgan illo rahmatdir. Davlatimiz nafaqat harbiy xizmatchilar uchun, balki biz kabi oddiy fuqarolarga ham shunday zamonaviy imkoniyatlarga ega gospital faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Bu yerga kirib kelganimdagi ahvolim va hozirgi holatimni solishtirsam, faqat shukr qilaman. Boisi bu kasallik bilan og‘rigan bemorlarning aksariyati dard oldida chorasiz qoladi. Biroq bugun men uni yengib o‘tish uchun kurashyapman. Bu kuch, bu ishonch harbiy shifokorlarning kaminaga bergan eng buyuk tuhfasi bo‘ldi.

Aytgancha, Elyorbekning oldida faqat ikki yo‘l bor edi: yo shu yoshida – 39 da to‘xtaydi, yoki yana hayot ne’matlaridan bahra olib, farzandlariga bosh bo‘ladi. Shunda taqdirning eng og‘ir savoliga yana bir inson javob berdi.

– Akamning holatini ko‘rib, chidab turolmadim, – deydi Obidxon Xamraliyev. – O‘ylab-o‘ylab, oxiri shu qarorga keldim: unga donor bo‘laman. Jigarimdan jigarimga beraman. Ha, aynan shunday qat’iy qaror qabul qildim. Oxirini o‘ylamadim. “Nima bo‘lsa, bo‘lar”, dedim. Akamning sog‘lig‘i tiklansa, shuning o‘zi men uchun katta baxt.

Ba’zi qarorlar oldida inson o‘zini ham o‘ylamay qo‘yar ekan-da, aka. Obidxonning qarori ham shunday edi. U operatsiya xavfini, qiyinchiliklarni, keyingi jarayonlarni bilmasligi mumkin edi. Ammo bir narsani aniq his qilardi: akasini yo‘qotishni istamasdi.

Tushunyapsizmi? Bu insonlar bitta ota-onaning farzandlari emas. Ammo qondan ham ustun turadigan bir rishta borligini ular amalda isbotladi. Chunki ba’zan insonni bir ota-onaning qoni emas, bir-biri uchun qayg‘urish, yelkadosh bo‘lish, og‘ir kunida tashlab ketmaslik birlashtiradi. Aslida aka-uka o‘rtasidagi mehrning haqiqiy qiymati ham shunda emasmi?

Yana bir gap. Qila olaman degan qaror hammasini o‘nglashi mumkinligini tibbiy xizmat polkovnigi qarorida ham ko‘rish mumkin.

– Bemor murojaatidan so‘ng chuqur tekshiruvlar olib bordik, – deydi tibbiy xizmat polkovnigi Tolibjon Siddiqov. – O‘rganishlarda barcha jihatlarga e’tibor qaratdik. Chunki bunday murakkab amaliyot avvallari gospitalimizda amalga oshirilmagan edi. Lekin davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan so‘nggi yillarda armiyamizda yaratib berilgan sharoit va imkoniyatlardan foydalanib, xavfli bo‘lsa-da, mazkur operatsiyaga qo‘l urdik. Bilim va tajribamiz ham yetarli edi.

Bilasizmi, aka, aslida jarrohlik stolida faqat ikki bemor yotmaydi. U yerda shifokorning bilimi, tajribasi, mas’uliyati va eng muhimi – inson hayoti uchun kurashishga bo‘lgan ishonchi ham sinovdan o‘tadi.

Tolibjon Siddiqov uchun ham bu operatsiya oddiy amaliyot emas, boisi gospital tarixida ilk bor shunday murakkab operatsiyaga qo‘l urilmoqda edi. Bir tomonda og‘ir bemor, ikkinchi tomonda esa uning hayotini saqlab qolish uchun o‘z jigarining bir qismini berishga rozi bo‘lgan donor ko‘zlari javdirab turardi. Ha, bunday holat har qanday yurakka og‘ir yuk bo‘lib joylashadi. Miyaga ishonchsiz o‘ylar sel kabi kiradi: to‘xta, bo‘ldi, sen uddalay olmaysan. Ammo kasbga sodiq insonlar oson yo‘lni emas, kerakli yo‘lni tanlaydi.

– Ayni vaqtda ikkala bemorning ham ahvoli ijobiy, – deydi Tolibjon Siddiqov. – Organizmlarida qayta tiklanish jarayoni jadallik bilan ketmoqda. Bu biz kutgan natijadan ham a’lo! Elyorbekka donor bo‘lgan qarindoshining jigari esa ikki-uch oyda yana o‘z holiga qaytadi. Chunki sog‘lom insonning bu organi o‘zini tiklay olish xususiyatiga ega.

Bu gaplarda harbiy shifokorning ovozidan sezilgan xotirjamlikning o‘zi katta voqea edi. Boisi bir paytlar Elyorbek uchun umidsizdek ko‘ringan kelajak endi yana o‘z ranglarini qaytarmoqda.

Ha, harbiy gospitalda kasbining haqiqiy ustalari ko‘p. Ular eng so‘nggi chorada ham najot ipini mahkam tutadi. Tutadiki, bemor qayta jonlanmaguncha qo‘yib yubormaydi. Sababi bu qasamyod, sodiqlik va sadoqat onti bilan bog‘liqdir. Tolibjon aka ham ana shu sharafli yo‘lning eng sodiq yo‘lovchisi.

– Ochig‘ini aytaman, chinakam jigarlar aynan shunday og‘ir sinovga duch kelgan ukasi yoki akasiga yordam berishdan qo‘rqqanini ham ko‘rganman, – deya so‘zida davom etadi tibbiy xizmat polkovnigi. – To‘g‘ri, bu vahimali ko‘rinadi. Biroq rizqi bor ekan, tavakkalga arziydigan hol. Bu yigitlarning bir-biriga bo‘lgan cheksiz mehrini ko‘rib, menda ham kuch paydo bo‘ldi. Jigar transplantatsiyasi masalalari bo‘yicha Milliy markazda o‘qib, tajriba oshirganim ayniqsa juda qo‘l keldi. Mana, yuzimiz yorug‘ bo‘ldi. Istagim, hech kim kasal bo‘lmasin!

Harbiy shifokorning bu so‘zlari nazarimda butun voqeaning eng katta xulosasidek yangraydi. Chunki haqiqiy shifokorning eng katta orzusi bemorlarni ko‘paytirish emas, ularni kamaytirishdir.

Aka, bir haqiqatni aytaymi? Oqibat ko‘tarildi, bordi-keldi kamaydi, degan gaplarga bugun aslo ishonmayman. Boisi bunday voqealar hamon otalardan meros qolgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas rishtalarning uzilmaganidan darak beradi. Hali ham og‘ir kunida akasi uchun jigaridan berganlar bor. Hali ham bemorning ko‘ziga qarab, “Qila olaman”, deya operatsiya stoliga kirib boradigan shifokorlar bor. Hali ham umidi so‘nayotgan insonga ertangi kun borligini isbotlaydigan kasb egalari bor. Demak, mehr o‘lmagan. Demak, odam odamga hali ham suyanch. Demak, qon-qonimizga singib ketgan ezgulik rishtalari mustahkam.

Elyorbekning hayoti davom etadi. Obidxon esa unga o‘z jigaridan bir bo‘lak berib, aslida o‘zining qalbidagi eng katta mehrini namoyon qildi. Tolibjon Siddiqov va uning hamkasblari esa ikki insonning taqdiri tutashgan joyda o‘z kasbining sharafini yana bir bor isbotladi. Shuning uchun ham ba’zi voqealarni shunchaki “yaxshi yakun” deb atab bo‘lmaydi. Bu insonning inson uchun nima qila olishining isboti. Demak, yo‘llar albatta manzilga olib boradi. Ahdlar esa ezgu natijaga eltadi. Eng muhimi, odamlar bir-birining qo‘lidan mahkam tutsa, eng og‘ir yo‘lda ham umid uzilmaydi.

Kapitan
Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”



Islohotlar bilan hamqadam

SHARQIY HARBIY OKRUGDAN XABARLAR

RAQAMLI TARAQQIYOT YO‘LIDA HAMKORLIK

Sharqiy harbiy okrug, Namangan viloyati hokimligi, Namangan davlat texnika universiteti hamda IT Park Namangan filiali o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum imzolandi. Mazkur hujjat harbiy sohada raqamlashtirish, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik yo‘nalishlarini rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda ushbu sohalarda malakali kadrlarni tayyorlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Memorandumga muvofiq, tomonlar harbiy xizmatchilar va yosh mutaxassislar uchun o‘quv-mashg‘ulotlar, amaliy seminarlar hamda qo‘shma loyihalarni tashkil etish, ilmiy va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni birgalikda o‘tkazish bo‘yicha hamkorlik qiladi.

Hamkorlik doirasida tajriba almashish, axborot texnologiyalari sohasidagi ilg‘or yechimlarni amaliyotga tatbiq etish, yoshlarning zamonaviy kasblarga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda kiberxavfsizlik madaniyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratiladi.





YAGONA VATAN G‘OYASI QALBLARNI BIRLASHTIRADI

Farg‘ona garnizonidagi harbiy qismda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” ezgu g‘oyasi ostida ochiq eshiklar kuni hamda bayram konsert dasturi tashkil etildi.

Tadbir avvalida Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari hamda keng jamoatchilik vakillari harbiy qismda harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan zamonaviy xizmat va maishiy sharoitlar, o‘quv-moddiy baza, harbiy texnika hamda jangovar tayyorgarlik jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

Bayram tadbirining badiiy qismida harbiy orkestr konserti, harbiy xizmatchilarning qo‘ljangi bo‘yicha ko‘rgazmali chiqishlari hamda taniqli san’atkorlarning kuy-qo‘shiqlari yig‘ilganlarga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi. Milliy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, xalq birdamligi va tinchlikni ulug‘lovchi badiiy chiqishlar tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.





MUDOFAA VAZIRI KUBOGI UCHUN

Farg‘onada sportning “Karate WKF” turi bo‘yicha mudofaa vaziri kubogi musobaqasining okrug bosqichi o‘tkazildi.

Mazkur sport musobaqasi harbiy xizmatchilar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, shuningdek jangovar ruhni yanada yuksaltirish maqsadida tashkil etildi.

Musobaqada harbiy sportchilar ishtirok etib, 6 ta vazn toifasida o‘zaro kuch sinashdi. Ularning jangovar mahorati, epchilligi va chidamliligi hakamlar hay’ati tomonidan adolatli mezonlar asosida baholandi. G‘oliblik uchun kechgan kurashlarda har bir ishtirokchi yuksak irodaviy sifatlar va professionallik namunalarini namoyish etdi.

Musobaqa yakunida vazn toifalari bo‘yicha g‘oliblar aniqlandi. Umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni Farg‘ona garnizonidagi harbiy qism qo‘lga kiritdi. Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni mos ravishda So‘x va Namangan garnizonlaridagi harbiy qismlar jamoalari egalladi. G‘oliblar harbiy okrug rahbariyati tomonidan diplom, medal va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.





KIBERSPORT – ZAMONAVIY KO‘NIKMALAR MAYDONI

Harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, mantiqiy hamda strategik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan kibersport musobaqasining birinchi bosqichi Sharqiy harbiy okrugda ham uyushqoqlik bilan tashkil etildi.

Ishtirokchilar kibersport bo‘yicha o‘z mahoratini sinovdan o‘tkazib, jamoaviy hamkorlik, tezkor fikrlash va vaziyatga mos ravishda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini namoyish etdi. Jamoalar har bir vaziyatga o‘ziga xos strategik yondashuv bilan belgilangan vazifalarni hamjihatlik bilan bajarishga intildi.

O‘ziga xos raqobat va ko‘tarinki ruhda o‘tgan musobaqaning xolis va adolatli o‘tishi hakamlar hay’ati tomonidan nazorat qilindi. Ishtirokchilarning natijalari belgilangan mezonlar asosida baholanib, g‘olib va sovrindorlar munosib taqdirlandi.

Kibersportning harbiy jamoalar orasida ommalashib borayotgani zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish bilan birga harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini oshirishga ham xizmat qilmoqda.





Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

Kiberxavfsizlik

Bugungi kunda axborot texnologiyalari kundalik hayotimiz va mehnat faoliyatimizning ajralmas qismiga aylangan. Ish jarayonida kompyuter, elektron pochta, internet, messenjerlar, mobil qurilmalar hamda turli axborot tizimlaridan muntazam foydalanamiz. Ushbu imkoniyatlar ish samaradorligini oshirish bilan birga yangi xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli kiberxavfsizlik faqat axborot texnologiyalari yoki kiberxavfsizlik mutaxassislarining vazifasi emas. Tashkilot axborot resurslaridan foydalanadigan har bir xodim uning xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.



HAR BIR XODIM BILISHI ZARUR BO'LGAN ASOSIY QOIDALAR

Kiberjinoyatchilar tashkilot axborot tizimiga kirish uchun har doim ham murakkab texnik vositalardan foydalanmaydi. Ba'zan buning uchun xodimni aldash, soxta elektron xat yuborish, zararli havolani bosishga undash yoki parolini qo'lga kiritishning o'zi yetarli bo'lishi mumkin. Shu sababli zamonaviy kiberxavfsizlikning eng muhim tamoyillaridan biri – **har bir xodimning kiberxavfsizlik qoidalariga ongli ravishda rioya qilishi hisoblanadi.**

Kiberxavfsizlik nima va u nega muhim?

Sodda qilib aytganda, kiberxavfsizlik kompyuterlar, axborot tizimlari, tarmoqlar va ulardagi ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalanish, o'zgartirish, yo'q qilish yoki tarqatishdan himoya qilishga qaratilgan choralar majmuasidir.

Tashkilotdagi ma'lumotlar oddiy fayllardan iborat emas. Xizmat hujjatlari, elektron yozishmalar, xodimlar haqidagi ma'lumotlar, hisobotlar, ma'lumotlar bazalari, login va parollar hamda boshqa elektron axborotlar tashkilot faoliyati uchun muhim resurs hisoblanadi. Bunday ma'lumotlarning begona shaxslar qo'liga tushishi, o'zgartirilishi yoki yo'qotilishi tashkilot faoliyatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Masalan, xodim elektron pochtasiga kelgan soxta xatdagi havolani bosib, login va parolini kiritdi. Tashqi tomondan qaraganda bu kichik xatodek ko'rinishi mumkin. Aslida esa qo'lga kiritilgan akkaunt orqali hujumchi tashkilotning boshqa xodimlariga xabar yuborishi, xizmat yozishmalarini o'rganishi yoki boshqa axborot resurslariga kirishga urinishi mumkin.

Demak, **bitta ehtiyotsiz harakat butun tashkilot xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin.**

1. Parol – shaxsiy elektron kalitingiz!

Parolni oddiy kod sifatida emas, balki xizmat xonasi yoki seyf kalitining elektron ko'rinishi sifatida tasavvur qilish mumkin. Agar kalit begona shaxsga berilmasa, parol ham boshqalarga oshkor qilinmasligi kerak.

Amaliyotda foydalanuvchilar eslab qolish oson bo'lishi uchun ism, tug'ilgan yil, telefon raqami yoki ketma-ket raqamlardan parol sifatida foydalanishi mumkin. Bunday parollarni aniqlash nisbatan oson.

Shuning uchun parol yaratishda uzun va taxmin qilish qiyin kombinatsiyalardan foydalanish, bir xil parolni turli xizmatlarda takrorlamaslik hamda xizmat parolini shaxsiy internet xizmatlarida ishlatmaslik tavsiya etiladi.

Parolni yozib, monitor yoniga yopishtirib qo'yish, hamkasbga aytish yoki messenjer orqali yuborish ham xavf tug'diradi. Zarurat bo'lmasa, brauzerlarda parollarni saqlashdan ham ehtiyot bo'lish kerak.

Imkoniyat mavjud bo'lsa, **ikki bosqichli yoki ko'p omilli autentifikatsiya (MFA)**dan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda parol begona shaxsga ma'lum bo'lib qolgan taqdirda ham tizimga kirish uchun qo'shimcha tasdiqlash talab etiladi.

2. Har qanday elektron xatga ishonmang!

Kiberhujumlarning keng tarqalgan usullaridan biri – fishing. Bunda jinoyatchi ishonchli tashkilot yoki tanish shaxs nomidan soxta xat, SMS yoki messenjer xabarini yuborib, foydalanuvchini aldashga harakat qiladi.

Masalan, xabarda "akkauntingiz bloklanadi", "parolingizni zudlik bilan yangilang", "ushbu hujjatni ko'rib chiqing" yoki "to'lovni tasdiqlang" kabi jumlalar bo'lishi mumkin. Xabar foydalanuvchini shoshiltirishga va havolani bosishga majbur qilishga qaratiladi.

Bunday vaziyatda birinchi qoida – **shoshilmaslik.**

Xabar kimdan kelganini tekshiring. Yuboruvchining elektron pochta manziliga e'tibor bering. Havolani bosishdan oldin uning qayerga olib borishini tekshiring. Siz kutmagan fayl kelgan bo'lsa, uni darhol ochmang. Ayniqsa, noma'lum manbadan kelgan arxivlar, dasturlar va shubhali hujjatlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ling.

Xabarning rahbar, hamkasb yoki tanish inson nomidan kelgani uning haqiqiy ekanini anglatmaydi. Zarur holatda boshqa aloqa vositasi orqali yuboruvchidan xabarni tasdiqlash mumkin.

3. Begona USB qurilmalaridan foydalanmang!

USB flesh-xotira kichik qurilma bo'lsa-da, zararli dasturlar tarqalish vositalaridan biriga aylanishi mumkin. Kimga tegishli ekani noma'lum bo'lgan flesh-xotirani xizmat kompyuteriga ulash tavsiya etilmaydi.

Tasavvur qiling, tashkilot hududida yoki boshqa joyda flesh-xotira topib oldingiz. Unda nima borligiga qiziqib xizmat kompyuteriga ulashingiz mumkin. Ammo ushbu qurilmada zararli dastur mavjud bo'lsa, uni ulashning o'zi xavfsizlikka tahdid tug'diradi.

Shu sababli faqat tashkilot tomonidan ruxsat etilgan va belgilangan tartibda foydalaniladigan tashqi axborot tashuvchilardan foydalanish kerak.

4. Kompyuterni qarovsiz qoldirmang!

Xodim ish joyidan qisqa vaqtga chiqayotgan bo'lsa ham, kompyuter ekranini bloklashi kerak. Buning uchun Windows tizimida Windows + L tugmalaridan foydalanish kifoya.

Bu juda oddiy harakat, ammo katta ahamiyatga ega. Ochiq qolgan kompyuter orqali boshqa shaxs xizmat hujjatlarini ko'rishi, elektron pochtadan foydalanishi yoki xodim nomidan axborot tizimida harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, ish kuni tugagach, tashkilotda belgilangan tartibga muvofiq, kompyuter va boshqa qurilmalarni xavfsiz holatda qoldirish lozim.

5. Dasturlarni o'zboshimchalik bilan o'rnatmang!

Internetda bepul dasturlar juda ko'p. Ammo ularning barchasi ham xavfsiz emas. Dastur bilan birga zararli komponentlar o'rnatilishi yoki foydalanuvchi ma'lumotlari yashirin ravishda yig'ilishi mumkin.

Shu sababli xizmat kompyuteriga dasturlarni faqat tashkilotda belgilangan tartib va vakolatlar asosida o'rnatish kerak. "Menga ish uchun kerak", "boshqa tashkilotda ham ishlatishadi" yoki "internetda bepul ekan" degan sabablar dasturning xavfsizligini kafolatlamaydi.

Dastur zarur bo'lsa, tegishli axborot texnologiyalari yoki kiberxavfsizlik bo'yicha mas'ul mutaxassislarga murojaat qilish to'g'ri yo'l hisoblanadi.

6. Xizmat ma'lumotlarini himoya qiling!

Xizmat faoliyatiga oid ma'lumotlarni shaxsiy elektron pochta, noma'lum bulutli xizmatlar yoki ruxsat etilmagan messenjerlar orqali yuborish xavf tug'dirishi mumkin.

Har qanday faylni jo'natishdan oldin o'zingizga oddiy savol bering: **"Ushbu ma'lumotni aynan shu shaxsga va aynan shu vosita orqali yuborishga ruxsat bormi?"**

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ish joyidagi monitor, xizmat hujjatlari, kirish kartalari yoki boshqa xizmat ma'lumotlari aks etgan suratlarni joylashtirishdan ehtiyot bo'lish zarur. Oddiy ko'ringan suratning o'zida ham begona shaxs uchun foydali bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'lishi mumkin.

7. Internetdan foydalanishda ehtiyotkor bo'ling!

Internetdagi har bir sayt xavfsiz emas. Soxta saytlar tashqi ko'rinishi jihatidan haqiqiy saytga juda o'xshash bo'lishi mumkin. Foydalanuvchi farqni sezmay, o'z login va parolini kiritishi natijasida ushbu ma'lumotlar jinoyatchilar qo'liga tushadi.

Shuning uchun muhim tizimlarga kirishda sayt manzilini tekshirish, noma'lum reklama va havolalarni bosmaslik, brauzerning xavfsizlik haqidagi ogohlantirishlarini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak.

Internetda "bepul", "tezkor", "faqat bugun" yoki "zudlik bilan tasdiqlang" kabi takliflar orqali foydalanuvchini shoshiltirish kiberjinoyatchilarning keng tarqalgan usullaridan biridir.

8. Shubhali holatni yashirmang – darhol xabar bering!

Kiberxavfsizlikda eng muhim qoidalardan biri – sodir bo'lgan yoki shubhali holat haqida o'z vaqtida xabar berish.

Agar tasodifan shubhali havolani bosgan, noma'lum faylni ochgan yoki parolingizni shubhali sahifaga kiritgan bo'lsangiz, vaziyatni yashirishga urinmang. Shuningdek, kompyuter odatdagidan boshqacha ishlay boshlasa, noma'lum oynalar paydo bo'lsa yoki siz yubormagan xabarlar akkauntingizdan jo'natilayotganini sezsangiz, tegishli mutaxassislarga imkon qadar tezroq murojaat qiling.

Muammoni erta aniqlash uning oqibatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Xodimning o'z vaqtida bergan bitta xabari kiberxavfsizlik mutaxassislariga tahdidni dastlabki bosqichda aniqlash va uning boshqa tizimlarga tarqalishining oldini olish imkonini berishi mumkin.

Kiberxavfsizlik texnologiyadan boshlanmaydi. Tashkilot zamonaviy himoya vositalari, antiviruslar, tarmoqlararo ekranlar va boshqa kiberxavfsizlik tizimlaridan foydalanishi mumkin. Biroq texnik himoya vositalari foydalanuvchining hushyorligini to'liq almashtira olmaydi.

Kiberjinoyatchilar buni yaxshi biladi. Shu sababli ular ko'pincha kompyuter tizimining zaifligidan ko'ra insonning ishonuvchanligi, shoshqaloqligi yoki e'tiborsizligidan foydalanishga harakat qiladi.

Kiberxavfsizlik bo'yicha bilimga ega xodim esa shubhali xabarni taniydi, noma'lum faylni ochmaydi, parolini oshkor qilmaydi va xavfli vaziyat yuzaga kelganda kimga murojaat qilishni biladi.

Eslab qolish kerak bo'lgan 8 qoida. Kundalik faoliyatda quyidagi oddiy qoidalarni odatga aylantirishning o'zi ko'plab kiberxavflarning oldini olishga yordam beradi:

1. Murakkab va ishonchli parollardan foydalaning hamda ularni boshqalarga bermang.
2. Shubhali elektron xat, xabar va havolalarga ishonmang.
3. Noma'lum fayllarni ochmang va begona USB qurilmalarini kompyuterga ulamang.
4. Ish joyidan ketayotganda kompyuteringizni bloklang.
5. Ruxsatsiz dasturlarni xizmat kompyuteriga o'rnatmang.
6. Xizmat ma'lumotlarini faqat belgilangan tartibda saqlang va yuboring.
7. Internetdan foydalanayotganda sayt manzili va manbaning ishonchliligini tekshiring.
8. Shubhali yoki noodatiy holat aniqlansa, bu haqda mas'ul mutaxassislarga tezkor xabar bering.

Xulosa. Kiberxavfsizlik faqat mutaxassislar shug'ullanadigan murakkab texnik jarayon emas. U har bir xodimning kundalik faoliyatidagi oddiy, ammo mas'uliyatli harakatlardan boshlanadi.

Elektron xatni ochishdan oldin bir necha soniya o'ylash, yuqorida sanab o'tilgan odatlar oddiy ko'rinishi mumkin, ammo aynan shu odatlar tashkilotning umumiy kiberxavfsizligini mustahkamlaydi.

Katta serjant
Bahodir DADABOYEV,
Mudofaa vazirligi
Kiberxavfsizlik departamenti
telekommunikatsiya tarmoqlarining
kiberxavfsizligi boshqarmasi
katta texnigi

Texnologiyalar



DRONLAR – ZAMONAVIY HARBIY mojarolarning yangi kuchi

XXI asr harbiy mojarolari o‘zining ko‘lami, usullari va texnologik jihatdan tubdan yangilanib borayotgani bilan avvalgi davrlardan keskin farq qiladi. Agar ilgari jangovar harakatlarning muvaffaqiyati asosan tanklar, artilleriya, aviatsiya va tirik kuch soniga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda axborot ustunligi, tezkor razvedka hamda yuqori aniqlikdagi zarbalarni amalga oshirish imkoniyati hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Ana shunday sharoitda uchuvchisiz uchish apparatlari – dronlar zamonaviy qurolli mojarolarning eng muhim texnologik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi o‘n yillikda dronlar harbiy sohada misli ko‘rilmagan sur’atlarda rivojlandi. Dastlab faqat razvedka va kuzatuv uchun qo‘llanilgan uchuvchisiz apparatlar bugungi kunda zarba berish, artilleriya o‘tini boshqarish, radioelektron razvedka, logistika, qidiruv-qutqaruv va hatto sun’iy intellekt yordamida avtonom qaror qabul qilish kabi murakkab vazifalarni ham bajarishga qodir bo‘ldi. Dunyoning turli hududlarida yuz bergan zamonaviy harbiy mojarolar ushbu texnologiyaning nafaqat samaradorligini, balki urush olib borish konsepsiyasini tubdan o‘zgartirayotganini yaqqol namoyon etdi.

Har qanday harbiy operatsiyaning muvaffaqiyati, avvalo dushman haqida ishonchli va tezkor ma’lumot olishga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan dronlarning eng muhim vazifasi razvedka hisoblanadi. Zamonaviy uchuvchisiz apparatlar yuqori aniqlikdagi optik va infraqizil kameralar yordamida hududni real vaqt rejimida kuzatadi, dushman kuchlarining joylashuvi, harakat yo‘nalishi va texnikasi haqida aniq ma’lumotlarni qo‘mondonlikka uzatadi. Natijada qaror qabul qilish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi, operatsiyalarni rejalashtirish esa yanada aniq va samarali amalga oshiriladi.

Dronlarning jangovar imkoniyatlari faqat razvedka bilan cheklanib qolmaydi. So‘nggi yillarda zarba beruvchi uchuvchisiz apparatlar zamonaviy armiyalarning eng muhim qurollaridan biriga aylandi. Ular yuqori aniqlikdagi boshqariladigan o‘q-dorilar yordamida harbiy texnika, qo‘mondonlik punktlari, aloqa vositalari va boshqa muhim obyektlarga zarba bera oladi. Bunday operatsiyalarda uchuvchi hayoti xavf ostiga qo‘yilmaydi, zarba esa qisqa vaqt ichida yuqori aniqlik bilan amalga oshiriladi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan nisbatan arzon bo‘lgan FPV dronlar qisqa muddat ichida zamonaviy jang maydonining eng samarali vositalaridan biriga aylandi. Ularning yuqori tezligi, manevrligi va operator tomonidan birinchi shaxs ko‘rinishida boshqarilishi kichik hajmdagi apparatlar yordamida qimmatbaho harbiy texnikalarni ishdan chiqarish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda dronlar artilleriya bo‘linmalari faoliyatini ham tubdan o‘zgartirdi. Ilgari nishonni aniqlash va zarbani tuzatish ko‘p vaqt talab qilgan bo‘lsa, endilikda uchuvchisiz apparatlar bir necha daqiqa ichida nishonni aniqlab, uning koordinatalarini uzatadi hamda zarbaning aniqligini nazorat qiladi. Natijada o‘q-dori sarfi kamayadi, zarbaning samaradorligi esa sezilarli darajada oshadi. Shu sababli ko‘plab mutaxassislar dronlarni zamonaviy artilleriyaning “ko‘zi” deb atashmoqda.

Zamonaviy harbiy mojarolarda axborot ustunligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jang maydonidagi vaziyatni birinchi bo‘lib ko‘rgan va uni tezkor tahlil qilgan tomon odatda tashabbusni ham qo‘lga oladi. Dronlar aynan mana shu ustunlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ular doimiy ravishda havo kuzatuvini olib boradi, olingan videoma’lumotlarni boshqaruv markazlariga uzatadi hamda qo‘shinlarning harakatini muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi esa tasvirlarni avtomatik tahlil qilish, harbiy texnikalarni tanib olish va ehtimoliy xavf manbalarini tezkor aniqlash imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Biroq har qanday texnologiya singari dronlardan foydalanish ham o‘ziga xos muammolarni yuzaga keltiradi. Radioelektron kurash vositalari yordamida boshqaruv signallarini bostirish, sun’iy yo‘ldosh navigatsiyasi signallarini buzish, aloqa kanallariga kiberhujumlar uyushtirish kabi choralar uchuvchisiz apparatlarning samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois dunyo davlatlari nafaqat yangi dronlarni yaratish, balki ularga qarshi kurashuvchi zamonaviy texnologiyalarni ham jadal rivojlantirmoqda. Radar tizimlari, radioelektron bostirish vositalari, lazer qurollari va maxsus tutuvchi dronlar shular jumlasidandir.

Kelajak harbiy mojarolarida sun’iy intellekt asosidagi avtonom dronlar va “dronlar to‘dasi” texnologiyalari alohida o‘rin egallashi kutilmoqda. O‘zaro axborot almashuvchi va birgalikda harakat qiluvchi yuzlab kichik apparatlar murakkab jangovar vazifalarni inson aralashuvisiz bajarishi mumkin. Bunday texnologiyalar operatsiyalar samaradorligini oshirishi bilan birga, harbiy strategiya va taktikaning yangi yo‘nalishlarini ham shakllantirmoqda.

Mamlakatimizda ham uchuvchisiz uchish apparatlari va robototexnika yo‘nalishiga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zamonaviy tahdidlar sharoitida malakali dron operatorlarini tayyorlash, simulyator markazlarini rivojlantirish, milliy uchuvchisiz tizimlarni yaratish, sun’iy intellekt va radioelektron kurash texnologiyalarini o‘zlashtirish mudofaa salohiyatini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, oliy harbiy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va mudofaa sanoati korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kelajakda ushbu sohada milliy ilmiy maktabni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, dronlar bugungi kunda oddiy texnik vosita emas, balki zamonaviy harbiy operatsiyalarning ajralmas qismi va muvaffaqiyat omiliga aylandi. Ular razvedka, zarba berish, boshqaruv, logistika va axborot ustunligini ta’minlash orqali jangovar harakatlarning mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Texnologiyalar rivojlanishi davom etar ekan, uchuvchisiz tizimlarning imkoniyatlari yanada kengayadi va ular kelajak harbiy mojarolarining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib qoladi.

Shu bois ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni kengaytirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va milliy texnologik salohiyatni rivojlantirish har bir davlatning mudofaa siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Kapitan Sanjarbek ABDULLAYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o‘qituvchisi



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Mangu yod

Tinchlik qadrin yurt qo‘riganlar bilar...

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida nishonlanayotgan mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug Termiz garnizonida xizmat qilayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar tomonidan Vatan himoyasi yo‘lida mardlarcha halok bo‘lgan yurt himoyachilari xotirasi yod etilib, xizmat vazifasini bajarish vaqtida tan jarohati olgan harbiy xizmatchilarning holidan xabar olindi.













Dastlab harbiy xizmatchilar 2001-yilda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida jangarilar bilan bo‘lgan to‘qnashuvlarda qahramonlarcha halok bo‘lgan serjant Muhiddin Eshtemirov xotirasini yodga olib, u ulg‘aygan xonadonga tashrif buyurdi.

Termiz tumanida kamol topgan, Vatanga sadoqatli va jasur harbiy xizmatchi Muhiddin Eshtemirov qisqa, ammo mazmunli hayoti davomida o‘zining matonati, jasorati va harbiy qasamyodiga sadoqati bilan safdoshlariga ibrat bo‘lgan. U Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida olib borilgan jangovar harakatlar davomida jangarilar bilan to‘qnashuvda qahramonlarcha halok bo‘lgan.

Harbiy xizmatchilar qahramonning onasi Manzura aya Dillayeva holidan xabar olib, uni Mustaqillik bayrami bilan samimiy muborakbod etdi. Suhbat davomida Muhiddinning bolalik va yoshlik yillari, harbiy xizmat davri, Vatan himoyasi yo‘lida ko‘rsatgan jasorati yodga olindi.

Mehmonlar xonadonda saqlanayotgan qahramonning suratlari, davlat mukofotlari, esdalik nishonlari hamda harbiy xizmat davrida yozgan maktublari bilan tanishdi. Marhum serjant Muhiddin Eshtemirovning onasiga Mudofaa vazirligi tomonidan ajratilgan pul mukofoti hamda bayram sovg‘asi topshirildi.

– Farzandim Vatan uchun umrining so‘nggigacha xizmat qildi. Bugun uning nomi, xotirasi e’zozlanayotgani, yosh harbiylarga ibrat bo‘layotganidan qalbim taskin topadi. Eng katta tilagim – yurtimizda tinchlik va osoyishtalik doimo barqaror bo‘lsin, – deydi Manzura aya Dillayeva.

Muhiddin Eshtemirovning Vatan himoyasi yo‘lidagi jasorati xalqimiz tomonidan hamisha e’zozlanib kelinmoqda. Ayni paytda u ulg‘ayib, voyaga yetgan mahallaga qahramon harbiy xizmatchi nomi berilgan. Ta’lim olgan maktabida uning byusti o‘rnatilgan, Vatan tinchligi uchun ko‘rsatgan jasorati aks ettirilgan xotira burchagi tashkil etilgan. Shuningdek, qahramon xotirasiga bag‘ishlab mevali daraxtlardan iborat bog‘ barpo etilgan.

Harbiy qismlarda Muhiddin Eshtemirovning qasamyodiga sodiqligi, jasorati va matonati aks etgan surat hamda lavhalar yosh harbiy xizmatchilar uchun haqiqiy ibrat maktabi vazifasini o‘tamoqda.

Shu kuni yurt posbonlari xizmat vazifasini bajarish vaqtida tan jarohati olgan katta leytenant Ne’mat Jo‘rayev va kichik serjant Shuhrat Qayumovlarning xonadonida ham bo‘lib, ularning holidan xabar olindi. Harbiy xizmatchilarga Mudofaa vazirligi tomonidan ajratilgan pul mukofotlari, qo‘mondonlikning bayram sovg‘alari hamda oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi.

– Bugungi osoyishta hayot, farzandlarimizning xotirjam kulgisi, yurtimizdagi tinchlik – eng katta ne’mat. Shu ne’matning qadriga yetib yashashimiz, Vatanimiz tinchligi va taraqqiyoti uchun munosib hissa qo‘shishimiz kerak. Barcha yurtdoshlarimizni Mustaqillik bayrami bilan muborakbod etaman, – dedi katta leytenant Ne’mat Jo‘rayev.

Zero tinchlikning qadrini uni asrash yo‘lida mashaqqat ko‘rgan, Vatan himoyasida jonini fido qilgan va bugun ham matonat bilan hayot kechirayotgan yurt himoyachilarining hayoti misolida yanada teranroq anglash mumkin.

Mustaqillik bayrami arafasida yurt himoyachilari va ularning oila a’zolaridan xabar olish, ularni qo‘llab-quvvatlash va xotirasini e’zozlashga qaratilgan ezgu ishlar boshqa garnizonlarda ham izchil davom etmoqda.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

O‘rganish va qabul

MAHALLADA OBODLIK VA MEHR-SAXOVAT

Bosh prokuror o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori, Toshkent shahri hokimi, shahar prokuraturasi rahbariyati, shahar IIBB boshlig‘i tomonidan qator mutasaddi tashkilotlar rahbarlari ishtirokida Bektemir tumanida o‘rganishlar olib borildi.

Jarayonda “Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli obodonlashtirish tadbirlariga alohida e’tibor qaratildi va olib borilayotgan amaliy ishlar yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Bosh prokuror o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Abay mahallasida ommaviy qabul o‘tkazilib, tuman hokimi va prokurori ishtirokida nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlar tinglandi.

Muloqot davomida aholini qiynab kelayotgan masalalarni joyida hal etish choralari ko‘rilib, muddat talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi. So‘ngra ommaviy qabuldagi murojaatlar tuman hokimi va prokurori ishtirokida bevosita joyiga chiqqan holda o‘rganildi.

Asnoda, fuqarolarning muammolari joyning o‘zida tinglanib, ularni hal etish yuzasidan amaliy choralar belgilandi. Shuningdek, hududda va ko‘chalarda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlari ko‘zdan kechirildi.

Yakunda mas’ullarga tegishli topshiriq va ko‘rsatmalar berildi.

Begali XURRAMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Kitob taqdimoti

“Hirotga, bobomning huzuriga!”







Mudofaa vazirligida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir Shahriyor Shavkatning Afg‘oniston safariga bag‘ishlangan “Hirotga, bobomning huzuriga!” nomli safarnoma kitobining taqdimoti o‘tkazildi.

Tadbirda Mudofaa vazirligi markaziy apparati harbiy xizmatchilari, Qurolli Kuchlar xizmatchilari hamda barcha harbiy okruglar qism va muassasalari vakillari videokonferens-aloqa orqali ishtirok etdi.

Taqdimotni Mudofaa vazirining vatanparvarlik targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Olimjon O‘sarov kirish so‘zi bilan ochib, safarnomaning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, muallifning Afg‘oniston hududidagi ulug‘ ajdodlarimiz qadamjolariga qilgan ziyorati va kechinmalari mahorat bilan qog‘ozga tushirilganini ta’kidlab, shoirning ijodiy yo‘li haqida atroflicha ma’lumot berdi.

Uchrashuvda so‘z olgan shoir Shahriyor Shavkat murakkab safar taassurotlari, chegaradan o‘tish jarayonidagi sinovlar, mahalliy mahkamalarda boshdan kechirgan kutilmagan voqealar hamda qo‘shni mamlakatdagi kundalik turmush tafsilotlarini hayajon va jonli lavhalar orqali hikoya qildi.





Muallif Afg‘onistondagi hayotni yurtimizda hukm surayotgan osoyishtalik va farovon hayot bilan qiyoslar ekan, ikki mamlakat harbiy tizimi, harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyati va qat’iy tartib-intizomi o‘rtasidagi keskin farqni alohida e’tirof etdi. U Vatan himoyachilarining bugungi qadr-qimmati, yurtimiz sarhadlarining daxlsizligi va har bir fuqaroning xotirjamligi qanchalik buyuk ne’mat ekanini qalbdan his qilganini bildirdi.

Shuningdek, muallif Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boborahim Mashrab kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning maqbaralarini ziyorat qilish chog‘idagi hayajonli kechinmalarini so‘zlab berdi.

Taqdimot jonli savol-javoblarga ulanib ketdi. Harbiy xizmatchilar tomonidan berilgan ko‘plab savollar shaxsiy tarkibning afg‘on xalqi va u yerdagi o‘zbeklarning bugungi hayotiga, shuningdek ulug‘ bobolarimiz xotirasiga nisbatan naqadar yuksak qiziqish va hurmat bilan qarayotganini yaqqol namoyon etdi.

Muloqot so‘ngida Shahriyor Shavkat “Hirotga, bobomning huzuriga!” kitobini dastxati bilan tadbir ishtirokchilariga taqdim etdi.

Furqat ERGASHEV

Tanlov

Ziyo ULASHUVCHILAR bellashuvi



Markaziy harbiy okrugda “Eng ilg‘or madaniyat markazi boshlig‘i” va “Eng yaxshi kutubxonachi” yo‘nalishlari bo‘yicha okrugning eng sara mutaxassislari o‘zaro bellashdi.



Tadbir davomida ishtirokchilarning yil davomida amalga oshirgan ishlari, faoliyatini yorituvchi hisobotlari va fotoalbomlar jamlanmasi keng qamrovda muhokama qilindi. Shuningdek, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash maqsadida maxsus nazariy test sinovlari o‘tkazildi.

Madaniyat markazi boshliqlari o‘zlarining madaniy hordiq tadbirlarini samarali tashkil etishdagi mahoratlarini namoyish etdi. Xususan, ular internet imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda berilgan mavzu yuzasidan zamonaviy ma’lumotlar bazasini yaratish ko‘nikmalarini, shuningdek markazda faoliyat yuritayotgan badiiy havaskorlik guruhlari ishini qay darajada tizimli yo‘lga qo‘yilganini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Kutubxonachilar bellashuvi esa yanada qiziqarli va bahs-munozaralarga boy tarzda o‘tdi. Unda kitobxonlarga ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini yaxshilash, elektron katalog yaratish va undan amalda foydalanish ko‘nikmalari, ma’naviy-ma’rifiy kechalar hamda turli adabiy tanlovlarni tashkil etishdagi shaxsiy tajribalar sinovdan o‘tkazildi. Ishtirokchilar sohaga oid test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirish bilan birga, bibliografik ko‘rsatkichlar tayyorlash borasidagi bilimlarini ham namoyish etdi.

Qizg‘in va murosasiz kurashlarga boy o‘tgan tanlov yakunida eng faol va tashabbuskor mutaxassislar saralanib, munosib ravishda diplom hamda esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi. Mazkur g‘oliblar endi tanlovning keyingi – Mudofaa vazirligi bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdi. Ushbu tanlov soha xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, faoliyatiga innovatsion g‘oyalarni joriy etish hamda harbiy qismlardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati bosh mutaxassisi

"G‘oyaviy jangchi" ko‘rik-tanlovi











TAFAKKUR VA SHIJOAT BAHSI

Mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada yuksaltirish, Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilib kelayotgan mardlarning intellektual salohiyati, harbiy bilim va ko‘nikmalarini har tomonlama oshirish yo‘lidagi amaliy sa’y-harakatlar izchil davom etmoqda.

Shu maqsadga muvofiq, Markaziy harbiy okrug qo‘shinlarida “Men g‘olib!” shiori ostida armiya o‘yinlari doirasida tashkil etilgan “G‘oyaviy jangchi” ko‘rik-tanlovining okrug bosqichi “Kattaqo‘rg‘on” okrug poligonida yuqori saviyada va ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi.

Mazkur tadbir Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida harbiy xizmatchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, harbiy an’analarni munosib davom ettirish hamda harbiy xizmat nufuzini yanada oshirishga qaratilgan muhim bosqichlardan biri bo‘ldi. Tanlovning bosh g‘oyasi – Vatanimizga sadoqatli, chinakam vatanparvar, yuksak professional darajadagi, o‘z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan, milliy va jangovar ruhi kuchli bo‘lgan fidoyi hamda mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, ularning ichki imkoniyatlari va yetakchilik fazilatlarini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Qizg‘in bahslar va murosasiz raqobat ostida o‘tgan ko‘rik-tanlov ishtirokchilarning bilimini har tomonlama sinovdan o‘tkazish maqsadida uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha tashkil etildi.

“Zakovat” intellektual yo‘nalishi harbiy xizmatchilarning aqliy salohiyati, mantiqiy fikrlashi, zukkoligi va zamonaviy dunyoqarashini namoyon etish uchun maydon vazifasini o‘tadi.

“Harbiy-kasbiy tayyorgarlik” yo‘nalishida shaxsiy tarkibning o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha egallagan amaliy ko‘nikmalari, jangovar shayligi va o‘ta murakkab sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish layoqati sinovdan o‘tkazildi.

“Ijodiy mahorat” yo‘nalishi esa ishtirokchilarning ma’naviy-ma’rifiy olami, san’atga bo‘lgan qiziqishi, badiiy ijod va o‘ziga xos yondashuvdagi qobiliyatlarini ochib berdi.

Tadbir yakunida hakamlar hay’ati tomonidan har bir ishtirokchining ko‘rsatgan natijalari adolatli baholanib, g‘olib va sovrindorlar munosib taqdirlandi.

Ushbu ko‘rik-tanlov harbiy jamoalarda birdamlik va o‘zaro hamjihatlik muhitini mustahkamlash barobarida, har bir harbiy xizmatchining qalbida shonli tariximizga hurmat, kelajakka bo‘lgan ishonch va Vatan himoyasidek sharafli burchga sadoqat tuyg‘ularini yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

"Drone Racing"

MUSOBAQA YUQORI saviyada o‘tdi

O‘zbekiston Respublikasi Xavfsizlik va mudofaa universitetining Markaziy harbiy okrug fakulteti hamda Samarqand shahridagi “Sputnik” akademiyasi hamkorligida yoshlar o‘rtasida zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishni tubdan oshirish, ularning texnik va innovatsion salohiyatini yuksaltirish, shuningdek iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Drone Racing” musobaqasi yuqori saviyada o‘tkazildi.

Ushbu nufuzli musobaqaning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda nafaqat mahalliy ishtirokchilar, balki respublikamizning turli viloyatlaridan tashrif buyurgan eng iqtidorli yoshlar va mutaxassislar, shuningdek harbiy xizmatchilar ham o‘zlarining kuch va mahoratlarini sinovdan o‘tkazdilar. Samarqand shahrining keng jamoatchiligi, yoshlar va kattalar qatorida harbiylarning faol ishtirok etishi tadbirning nufuzini yanada oshirdi.





Ishtirokchilar zamonaviy dronlarni boshqarish bo‘yicha o‘zlarining yuksak mahorati, chaqqonligi, aniqligi hamda favqulodda vaziyatlardagi tezkor harakat tezligini namoyish etdi.

Zamonaviy dron texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar asosida o‘tgan qiziqarli va murosasiz bahslar barcha qatnashchilar uchun haqiqiy texnik bilim va mahorat sinoviga aylandi.

Tadbir yakunida shiddatli poygalarda eng yuqori natijalarni ko‘rsatgan g‘oliblar va faol ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi. Ushbu respublika miqyosidagi musobaqa hududlararo tajriba almashish, yoshlar va harbiylar o‘rtasida zamonaviy texnologiyalarni ommalashtirish hamda mamlakatimizda innovatsion sport turlarini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati

Rahbar va yoshlar

UNUTILMAS TAASSUROTLAR VA YANGI O’QUV AVTODROMI

“Yoshlar kuni” munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 200 dan ortiq surxondaryolik yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.





Termiz tumanida o‘tkazilgan tadbirda H. Botirov yig‘ilganlarga “Vatanparvar” tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to‘g‘risida ma’lumot berdi.

U “Vatanparvar” tashkiloti respublikamizda nafaqat haydovchilik kasbiga tayyorlovchi eng ko‘p o‘quv muassasalariga ega tuzilma hisoblanishi, balki tashkilotda fuqarolar ushbu kasbdan tashqari vulkanizatorchi, elektrik-akkumulyatorchi, gaz-elektr payvandchi, avtochilangar, avtoelektrik kasblariga ham o‘qitilishini bildirdi.

Ochiq muloqot qizg‘in savol-javoblar bilan o‘tdi. E’tiborlisi, tadbirda ishtirok etgan bir qator ishtirokchilar tashkilotning o‘quv muassasalarida kasb-hunar egallash va sport bilan shug‘ullanish istagini bildirdi.

“Rahbar va yoshlar” uchrashuvi doirasida davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Jarqo‘rg‘on tumani o‘quv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan yangi zamonaviy o‘quv avtodromi foydalanishga topshirildi.

Tantanali ochilish marosimida “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, viloyat Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda viloyat kengashi tasarrufidagi o‘quv muassasalariga yangi xarid qilingan 8 ta “KIA Sonet”, 9 ta “Onix”, 2 ta “FOTON” rusumidagi yengil va yuk avtomobillari hamda 1 ta mototsikl topshirildi. Endilikda ushbu o‘quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida “A”, “B” va “C” toifalari bo‘yicha o‘qiyotgan fuqarolar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadi.



O‘zbekiston kubogi

YOSH TRIATLON SPORTCHILARI KUCH SINASHDI

Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan sportning triatlon turi bo‘yicha O‘zbekiston kubogining ikkinchi bosqich musobaqasi o‘tkazildi.







Mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan 100 dan ortiq sportchi “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida uchta yosh toifalarida g‘oliblik uchun bahs olib bordi.

19 yosh va undan katta yoshdagi erkaklar va ayollar hamda 16-18 yoshli o‘g‘il va qizlar musobaqa shartlariga ko‘ra, 750 metr masofaga suzish, 20 kilometr masofaga velosipedda harakatlanish va 5 kilometr masofaga yugurish bo‘yicha o‘zaro bellashdi.

12-15 yoshli o‘g‘il bolalar va qizlardan esa 350 metr masofaga suzish, 10 kilometr masofani velosipedda bosib o‘tish va 2,5 kilometr masofaga yugurish talab etildi.

Murosasiz va qizg‘in kechgan kubok musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

19 yosh va undan katta erkaklar o‘rtasida: 1-o‘rin: Sulton Aliyev *(Toshkent sh.).*

19 yosh va undan katta ayollar o‘rtasida: 1-o‘rin: Shahribonu Salimova *(Toshkent v.).*

16-18 yoshli o‘g‘il bolalar o‘rtasida: 1-o‘rin: Jahongir Mardiyev *(Toshkent v.).*

16-18 yoshli qizlar o‘rtasida: 1-o‘rin: Gulhida Irisboyeva *(Toshkent v.).*

12-15 yoshli o‘g‘il bolalar o‘rtasida: 1-o‘rin: Salohiddin Fayzullayev *(Toshkent v.);*

12-15 yoshli qizlar o‘rtasida: 1-o‘rin: Anelya Siyilbekova *(Toshkent v.);*

Jamoa hisobida:

1-o‘rin: Qashqadaryo viloyati;

2-o‘rin: Toshkent viloyati;

3-o‘rin: Toshkent shahri jamoalari.

G‘olib va sovrindorlar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va qimmatbaho sovg‘alari bilan taqdirlandi.

O‘q otish sporti



MERGANLAR NAMANGANDA BELLASHDI

Namangan shahrida “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan yoshlar o‘rtasida sportning pnevmatik quroldan o‘q otish turi bo‘yicha O‘zbekiston kubogining ikkinchi bosqich musobaqasi o‘tkazildi.



Uch kun davom etgan bellashuvlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan kelgan 100 ga yaqin sportchi 10 metrlik masofadan pnevmatik miltiq va pistoletlardan nishonga o‘q uzdi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

Miltiqdan o‘q otish bo‘yicha “VP-6” sinfida:

O‘g‘il bolalar o‘rtasida: 1-o‘rin: Muhammadjon Anvarov *(Toshkent v.).*

Qizlar o‘rtasida: 1-o‘rin: Zarinabonu Turopova *(Navoiy v.);*

Pistoletdan o‘q otish bo‘yicha “PP-3” sinfida:

O‘g‘il bolalar o‘rtasida: 1-o‘rin: Rafet Kerimov *(Namangan v.).*

Qizlar o‘rtasida: 1-o‘rin: Nodirabegim Orifjonova *(Farg‘ona v.)*

Jamoa hisobida:

1-o‘rin: Toshkent viloyati;

2-o‘rin: Namangan viloyati;

3-o‘rin: Farg‘ona viloyati jamoalari.

G‘olib va yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va sovg‘alari bilan taqdirlandi.

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

JARAYON *muvaffaqiyat bilan uddalanmoqda*



Yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol, intellektual salohiyatli hamda ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining asosiy vazifalaridan biridir. Bu o'ta muhim jarayonni tashkilotning Jizzax viloyati kengashi tasarrufidagi Zafarobod tumani o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi ham muvaffaqiyat bilan uddalab kelmoqda.













Belgilangan reja asosida tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi hamda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan o'tkazilayotgan tadbirlar shular sirasidandir.

Chunonchi, ushbu muhim sanaga bag'ishlangan "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida tashkil etilayotgan sport musobaqalari ham yoshlarni yanada ruhlantirmoqda.

Bundan tashqari, yoshlar va aholi orasida harbiy-vatanparvarlik, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda markazda faoliyat olib borayotgan sport to'garaklariga jalb etish borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to'garaklari ishini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida turli musobaqalar o'tkazilyapti. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, birinchidan, sportning texnik va amaliy turlariga yoshlarni imkon qadar ko'proq jalb etish bo'lsa, ikkinchidan, nufuzli musobaqalarda ularning faol ishtirokini ta'minlashdan iborat. Shu bois musobaqalarda ishtirok etgan sportchi yoshlarimiz yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqda.

Shu kunlarda tashkilotda haydovchilar tayyorlash ishlari ham muvaffaqiyat bilan uddalab kelinmoqda. Belgilangan reja asosida "B", "BC", "BE", "CE" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. O'z navbatida, bo'lajak haydovchilarning malakasini oshirish maqsadida barcha zarur sharoitlarning mavjudligi ham xodimlarning samarali mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratmoqda.

Fazliddin KUBAYEV,
"Vatanparvar" tashkiloti Zafarobod tumani O'STM NTM direktori

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida



Ustozlar tajribasi IJOBIY SAMARA *bermoqda*









Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Bog‘ot tumanida ham muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, harbiy-vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi tuman 1-sonli o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida olib borilayotgan ishlar shular jumlasidandir.

Ayni paytda mazkur markaz xodimlari tomonidan yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarini bugungi kun talabi asosida tashkil etish maqsadida harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti faol tarzda olib borilmoqda. Chunonchi, tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, Yoshlar ishlari agentligi, harbiy qismlar bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan targ‘ibot tadbirlari o‘z samarasini bermoqda.

– Mustaqillikning 35 yilligiga bag‘ishlab “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida o‘tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlarning qalbida ona Vatanga sadoqat hissini, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi, – deydi markaz direktori Dadaxon Bobojonov. – Shu bois ham tashkilotimiz jamoasi tomonidan tuman yoshlarining jismoniy, ma’naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo‘lishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.



Bundan tashqari, yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga ko‘maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug‘ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Shu kunlarda markazda faoliyat yuritayotgan “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon”, “Karting” kabi seksiya va to‘garaklarda 50 nafarga yaqin iqtidorli yosh jalb qilingan. O‘z navbatida, sportchi yoshlar nufuzli musobaqalarda sovrinli o‘rinlarni zabt etmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ushbu markazda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash borasida ham samarali ko‘rsatkichlarga erishilmoqda. Belgilangan reja asosida joriy yilning o‘tgan oylari mobaynida besh yuz nafardan ziyod haydovchi tayyorlandi. Shuningdek, “Yoshlar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan 24 kishi imtiyoz asosida haydovchilik kurslarini muvaffaqiyatli ravishda bitirib, mustaqil hayotga yo‘llanma oldi.

Ayni paytda tashkilotda “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Buning uchun sinfxonalar talab darajasida jihozlandi, zamonaviy rusumdagi yengil va yuk avtomobillari xarid qilindi.

Bugungi kunda tashkilot jamoasi tarkibida katta mehnat tajribasiga ega mohir o‘qituvchilar hamda amaliy boshqarishni o‘rgatuvchi-ustalar talaygina. Tohir Hasanov, Yunus Sattorov, Diyorbek Abdullayev, Odamboy Nazarov, Go‘zal Jumaboyeva, Quronboy Tojiyev, Ergash Bekturdiyev singari o‘qituvchi va murabbiylar shular jumlasidan. Tinglovchilarning imtihon hay’ati qabul qilgan sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tayotganlarida ham ana shunday ustozlar faoliyati ijobiy samara berayotganidan dalolatdir.

Akbar ALLAMURODOV

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Sharafli burch

IMKONIYAT VA IMTIYOZLAR

Mazkur infografika muddatli harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatni o‘tayotgan yoshlar uchun yaratilgan yangi imkoniyat va imtiyozlarni qamrab oladi. Unda oliy ta’limga kirish, “Zaxiradagi leytenant” harbiy unvonini olish, iqtidorli askarlarni oliy ta’limga tavsiya qilish, chempion askarlarga davlat granti ajratish kabi muhim imkoniyatlar belgilangan.

Shuningdek, har bir askarga kamida bitta kasb o‘rgatish, oliy ta’limga tayyorlanish xarajatlarini qoplash, xizmatdan qaytgan yoshlarga kasb-hunar kurslari uchun vaucher berish, tadbirkorlikni boshlash uchun moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish hamda davlat xizmatiga kirishda qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etilishi nazarda tutilgan. Bu choralar harbiy xizmatni yoshlarning ta’lim olishi, kasb egallashi va kelgusida munosib ish o‘rniga ega bo‘lishi bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

Infografikada, shuningdek harbiy xizmatchilar o‘rtasida “Ma’naviyat qalqoni” respublika kitobxonlik tanlovini o‘tkazish, g‘oliblarni rag‘batlantirish va tanlovda yuqori o‘rinlarni egallagan harbiy xizmatchilarning xizmat muddatini qisqartirish imkoniyatlari ham ko‘rsatilgan.

Umuman, belgilangan chora-tadbirlar harbiy xizmatning jozibadorligini oshirish, yoshlarning bilim va kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda ularni xizmatdan keyingi mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan.

Kapitan Begzod XAYDAROV,
Mudofaa vazirligi Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti yoshlar bilan ishlash boshqarmasi katta ofitseri

MUDDATLI HARBIY XIZMAT — YANGI IMKONIYATLAR

MUDDATLI HARBIY XIZMATCHILAR VA HARBIY XIZMATNI O‘TAGAN YOSHLARGA BERILADIGAN IMTIYOZ VA KAFOLATLAR (PQ-134-SON 2026-YIL 7-APREL)

01 XIZMAT DAVRIDA OLIY TA’LIMGA HUJJAT TOPSHIRISH

Oliy ta’limning **masofaviy** shaklida o‘qish uchun kirish imtihonlarida ishtirok etish va natijasiga ko‘ra ta’lim olishga ruxsat beriladi

To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilingan askarlarga birinchi o‘quv yili uchun **imtiyozli ta’lim krediti** ajratiladi

02 “ZAXIRADAGI LEYTENANT” UNVONINI OLISH IMKONIYATI

Xizmat davrida OTMga qabul qilingan askarlar harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan talabalarga tenglashtiriladi

Oliy ta’lim muassasalarini muvafaqqiyatli tugatgan yoshlarga **“Zaxiradagi leytenant”** harbiy unvoni beriladi

03 IQTIDORLI ASKARLAR UCHUN HARBIY OTMlarga KIRISH IMKONIYATI

Sport musobaqalari yoki fan olimpiadalarida **1-o‘rinni** qo‘lga kiritgan **100 nafar** askar tanlov asosida saralanadi

Ular OHTMga dastlabki saralash va maxsus-kasbiy tanlov natijalariga ko‘ra test sinovlari va suhbatsiz qabul qilinadi

04 CHEMPION ASKARLAR UCHUN DAVLAT GRANTI

Olimpiada va Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo‘yicha respublika hamda xalqaro musobaqalarda **1-o‘rinni** qo‘lga kiritgan askarlar sinovlarsiz qabul qilinadi

Davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga o‘qishga grant asosida kirish sinovlarsiz qabul qilinadi

05 HAR BIR ASKARGA KAMIDA BITTA KASB

Harbiy qismlarda kasbga o‘qitish kurslari tashkil etiladi, bitta kasbga o‘qitish bo‘yicha **6 oylik o‘quv kurslari** tashkil etiladi

Kasbga o‘qitish kurslarini muvafaqqiyatli tamomlaganlarga davlat namunasidagi **sertifikat** beriladi

06 OLIY TA’LIMGA TAYYORLANISH XARAJATLARINI QOPLASH

Xizmatni tugatib, OTMga kirishni istagan yoshlarga **xorijiy til va fan sertifikatlari** uchun qilingan xarajatlar qoplab beriladi

Xarajatlar **“Yoshlar daftari”**ga kiritilgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan qoplab beriladi

07 XUSUSIY SEKTORDA ISHLASH UCHUN KASB O‘RGANISH

Xizmatdan qaytgan yoshlarga **kasb-hunar o‘quv kurslari** uchun xarajatlar davlat tomonidan **vaucher** asosida qoplab beriladi

Xarajatlar **Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi** hisobidan qoplab beriladi

08 TADBIRKORLIKNI BOSHLASHGA MOLIYAVIY YORDAM

Xizmatdan so‘ng tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan yoshlarga **kredit foizi** xarajatlari qonunchilikda belgilangan tartibda **qoplab beriladi**

Xarajatlar davlat dyudjeti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mabaalar hisobidan qoplab beriladi

09 DAVLAT XIZMATIGA KIRISHDA QO‘SHIMCHA IMTIYOZ

Muddatli harbiy xizmatni o‘tagan yoshlarga davlat organlariga ishga qabul qilish uchun testlarda **10%** li imtiyoz beriladi

2027-yil 1-apreldan boshlab

Mazkur imtiyozlar joriy etiladi

“MA’NAVIYAT QALQONI” RESPUBLIKA KITOBXONLIK TANLOVI PQ-SON 2026-YIL 7-APREL

HARBIY XIZMATCHILAR O‘RTASIDA KITOBXONLIK TANLOVI

Harbiy xizmatchilar o‘rtasida **2026**-yildan boshlab har yili **4** bosqichda **“Ma’naviyat qalqoni”** respublika kitobxonlik tanlovi o‘tkaziladi

OLIY BOSH QO‘MONDON SOVRINLARI

1- o‘rin sohibi – **elektromobil**
2- o‘rin sohibi – BHM **100** baravari
3- o‘rin sohibi – BHM **70** baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi

HARBIY XIZMAT MUDDATI QISQARTIRILADI

Tanlovning respublika bosqichida **1-, 2-, 3-** o‘rinlarni egallagan muddatli harbiy xizmatchilarning xizmat muddati **1** oyga qisqartiriladi

XIZMAT MUDDATI -1OY

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug‘bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Shohrux Saidov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboyev
Musahhih: Sayyora Meliqo‘ziyeva

Buyurtma: V-6179
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 075 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT hamkorlikda “O‘zbekiston” NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya